

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

I.M.SAIDOV, R.I.SAIDOVA

**ZAMONAVIY JAHON VA VATAN TARIXI –
SONLAR, FAKTLAR VA JADVALLARDA**

O‘QUV QO‘LLANMA

Samarqand – 2018

I.M.Saidov, R.I.Saidova. Zamonaviy Jahon va Vatan tarixi – sonlar, faktlar va jadvallarda. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 2018 yil. 92-bet.

O‘quv qo‘llanma o‘z ichiga zamonaviy jahon va yurt tarixi haqida ma’lumotlar, hamda XX-XXI asr siyosiy tarixi va XIX asr oxiridan to hozirgi davrni qamrab olgan.

Qo‘llanma ustida ishlash chog‘ida mualliflar quyidagi kitoblardan keng foydalanganlar: «Наше отечество» (“Bizning Vatan”), «История отечества: люди, идеи, решения» (“VatanTarixi: odamlar, g‘oyalar, xulosalar”), SSSR va yangi tarix bo‘yicha xrestomatiyalar, turli ma’lumotnomalar, hamda so‘ngi yillarda gazeta va jurnallarda tarixiy mavzular bo‘yicha nashr etilgan maqolalar.

O‘quv qo‘llanmani tayyorladilar: tarix fanlari doktori prof, Saidov I.M. va assistent Saidova R.I.

Ma’sul muharrir: t.f.d. prof. R.Farmonov

**Taqrizchilar: dots.M.Handamova
ass.S.I.Sharipov
ass. S.O‘sarov**

Samarqand davlat universiteti Ilmiy kengashining 2018-yil 29-maydagi 12-son bayonnomasi qarori bilan o‘quv qo‘llanma sifatida nashrga tavsiya etildi.

© SamDU, 2018.

ISHCHILAR SINFINING ASOSIY SIYOSIY PARTIYALARI

1869	Germaniya sotsial-demokratik ishchi partiyasi
1875	Partugaliya sotsialistik partiyasi
1876	Daniya sotsial-demokratik partiyasi
1877	AQShda Ishchi partiyasi: 1977y. Sotsialistik ishchi partiyasi deb qayta nomlangan
1878	Chex-slavyan sotsial-demokratik partiyasi
1879	Fransiya Ishchi partiyasi
1882	Italiya Ishchi partiyasi
1883	Rossiyadagi “Mehnatni ozod qilish” guruhi
1884	Angliyada Sotsial-demokratik federatsiya
1886	Belgiya Ishchi partiyasi
1887	Norvegiya Ishchi partiyasi

1889	Avstriya sotsial-demokratik partiyasi
1889	Shveytsariya sotsial-demokratik partiyasi
1889	Shvetsiya sotsial-demokratik partiyasi
1890	Vengriya sotsial-demokratik partiyasi
1890	Avstraliya Sotsialistik ligasi
1891	Bolgariya sotsial-demokratik partiyasi
1892	Italiya sotsialistik partiyasi
1893	Polsha Qirolligi va Litva sotsial-demokratik partiyasi
1894	Finlandiya sotsial-demokratik partiyasi
1896	Argentina sotsialistik partiyasi
1898	Rossiya sotsial-demokratik ishchi partiyasi
1903	Serbiya sotsial-demokratik partiyasi

GERMANIYA REYXSTAGIDA SOTSIAL-DEMOKRATLARNING VAKILLARI

Saylovlar yili	Deputatlar soni	Ularga berilgan ovozlar soni
1877	12	493,4 ming
1878	9	437,1 ming
1887	11	763,1 ming
1890	35	1mln. 427,3 ming
1903	83	3 mln. 10,7 ming
1912	110	4 mln. 250,4 ming

1912 yil saylov natijalari bo'yicha ovozlar taqsimlanishi % larda:

Sotsial-demokratlar – 34,8; progresschilar – 12,3; natsional-liberallar – 13,6; va boshqalar – 1




**FRANSIYADA XX ASR BOSHLARIDA DEPUTATLAR PALATASIDA
PARTIYALAR ORASIDAGI MANDATLAR TAQSIMOTI**

Partiyalar	1902	1905	1910	1914
Sotsialistlar	46	71	102	130
Radikallar	196	280	188	236
Mo‘tadil respublikachilar	180	121	174	153
Monarxistlar	147	109	112	73
Deputatlarning umumiy soni	600	591	597	602

**1870-1913-YILLARDA G‘ARB DAVLATLARIDA O‘RTACHA
YILLIK O‘SISH SUR‘ATLARI**

Davlatlar	Umumiy hajm	Sanoat mahsulotlari	Sanoat unumdorligi	Eksport
Angliya	2,2	2,1	0,6	2,2
AQSh	4,3	4,7	1,5	3,2
Germaniya	2,9	4,1	2,6	4,3

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA G‘ARB DAVLATLARIDA AHOLINING ASOSIY FAOLIYAT SOHALARI BO‘YICHA TAQSIMOTI




**XX ASR BOSHLARIDA G‘ARBIY DAVLATLARIDA
ISH TASHLASH HARAKATLARI**

Yillar	Germaniya	Fransiya	Angliya
1900	2799	905	648
1904	3752	1050	355
1905	5044	887	368
1906	6871	1547	486


**XX ASR BOSHLARIDA MUSTAMLAKACHILIK TIZIMI
(%larda)**

Mustamlakalar	Hududi	Aholisi
Osiyo	56,6	47,6
Afrika	90,4	87,7
Amerika	27,2	6,2
Mustamlakalar bilan yarim mustamlaka va qaram davlatlar	66,9	60

XX ASR BOSHLARIDA BA'ZI DAVLATLARNING MUSTAMLAKALARI
(hududi mln²)
(aholisi mln. odam)



XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA JAHONDA NEFT QAZIB OLISH
(mln.tonna)



XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA IQTISODIGA G‘ARB DAVLATLARINING KAPITAL KIRITISHI

Yil	O‘lchov birligi	Fransiya	Angliya	Germaniya	Belgiya	Boshqa davlatlar	Jami
1900	Mln.rubl/%	226,1/24,8	136,1/15,0	219,3/31,1	296,5/32,5	32,3/3,6	911,0/100,0
1915	Mln.rubl/ %	687,9/31,3	535,4/24,8	436,1/19,8	318,7/14,5	227,7/10,3	2205,9/100,0

XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYANING YEVROPA QISMIDA SANOAT ISHLAB CHIQRISHINING KONSENTRATSIYASI

Korxonalar farqi	1901/1914yy. Korxonalar soni		1901/1914yy. Ishchilar soni	
	Jami	%	Jami	%
100 kishigacha	15168/11117	83,9/78,4	414785/348876	24,4/17,8
101 dan 500 kishigacha	2288/253	12,6/16,1	492095/504440	28,9/25,7
501 dan 1000 kishigacha	403/432	22/31	269133/296374	15,8/15,1
1000 kishidandan ziyod	243/344	1,3/2,4	525637/811197	30,9/41,4

ROSSIYA SANOATI (1894-1917)

1890-1913yillarda Rossiya sanoati ishlab chiqarishi 4 baravar, sanoat daromadi esa dehqonchilikdan tushadigan daromad bilan tenglashdi. O'sha paytda manufaktura mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini tovar ishlabchiqarish 4/5 qismini qondirgan.

1910-1914 yillar oralig'ida qat'iy qayta joriy etilgan aksionerlar jamiyatlari soni 132% ga, ularga kiritilgan kapital miqdori esa deyarli 4 barobarga oshadi.

1914-yilda Davlat Omonat Kassasiga 2,236,000,000 rubl omonat kiritilgandi.

Umumiy omonat va shaxsiy kapitalning kichik kredit muassasalariga (kooperativ asosida) kiritilishi tashkil etdi: 1894-yilda – taxminan 70000,000 rubl:

1913-yilda – taxminan 620,000,000 rubl:

1917-yilning 1-yanvarida – 12,000,000,000 rubl.

ROSSIYANING TEMIR YO‘LLARI

1880-1917-yillar oralig‘ida 58,251 km. temiryo‘llar yotqizildi, yani yillik o‘rtacha o‘rish – 1575 km.ni tashkil etdi.

1 km. temiryo‘lni yotqizish uchun Podsho Rossiyasi – 74 ming rubl sarflardi, Sovetlar hukumati davrida esa – 790 ming rublni tashkil etdi.

1917-yilga kelib Rossiyada 81 116 km. temir yo‘llar ekspluatatsiyada va 15 ming km. yo‘l esa qurilish pallasida edi.

Buyuk Sibir temir yo‘lining umumiy uzunligi 8 ming verstni tashkil etib, bu dunyodagi eng uzun temir yo‘l edi. 1916-yilda urushning ayni avjida 2 ming verst yotqizilgan temir yo‘l Shimoliy Muz Okeani (Romanovsk porti) bilan Rossiyaning markazini bog‘lardi. Rossiya temir yo‘llari dunyodagi eng arzon temir yo‘l edi.

ROSSIYA DEHQONCHILIGI (1894-1917)

ISHLAB CHIQRISH

1914-1918 urush yillaridan oldingi ikki oʻn yillik oldin, don xirmoni ikki barobarga oshgandi.

1913-yili Rossiyada asosiy boshqoqli ekinlar hosili, Argentina, Kanada va AQSh birgalikdagi hosiliga nisbatan 1/3 barobar koʻp edi.

1-Jahon urishi arafasida Rossiya dunyoning 80% zigʻirini ishlab chiqarardi. 1906-yili Rossiyaning Angliyaga don kiritishi 279009 funt, 1910-yilga kelib esa 2 820 049 000 funtni tashkil etdi.

Javdar hosili 1894-yilida 2 mlrd. pud, 1913-yilda esa 4 mlrd. pudni tashkil etdi.

Paxta ishlab chiqarish 20 yil ichida 388% ga oshdi. 1910-yilda Rossiya dunyoning tuxumga boʻlgan ehtiyojini 50%ni qopladi

ISTEʼMOL QILISH

1894-yildan 1914-yilgacha shakar isteʼmoli har bir kishiga 4kg.dan 9kg.ga yetdi.

Shu vaqt oraligʻida choy isteʼmoli 40mln. kgdan 75mln. kg.ga yetdi.

ROSSIYANING MOLIYASI (1894-1917)

Rossiya Imperiyasi o'zining siyosatini nafaqat defitsitsiz, byudjet asosida, balki oltin zaxiralarni yig'ishga ham qurgan. Davlat daromadi 1897-yili 1.410.000.000 rublni tashkil etdi. Daromadlar har yili o'sgan, sarf-xarajt esa ancha-muncha o'zgarmas bo'lgan.

1886-yili qonun bilan oltin valyuta iste'molga kiritiladi. Ustiga ustak hukumat qog'oz pulni muomilasini naqd oltin bilan 1000ga ta'minladi.

1914-yilning oxiriga kelib muomiladagi kredit biletning umumiy qiymati 1633.000.000 rublni, o'sha paytda Rossiyaning oltin zaxirasi 1604000.000 rubl, chet el banklarida esa 141.000.000 rublni tashkil etgan.

Pul muomalasining barqarorligi shu qadar ediki, hattoki rus-yapon urushi davrida ham kredit biletning oltiniga almashtirish to'xtatib qo'yilgan emas edi.

1-Jahon urushigacha Rossiyada dunyodagi eng past soliqlar edi.

XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYANING YEVROPA QISMIDAGI YERLARINING TAQSIMOTI

Xo‘jaliklar	Mulklar soni	Desyatina yerlar soni	O‘rtacha 1ta mulkdorga
Eng kambag‘al dehqonlar	10,5	75,0	7,0
O‘rta hol dehqonlar	1,0	15,0	15,0
Dehqon burjuazlar va kapitalistik yer egaligi	1,5	70,0	46,7
Krepostnoylar	0,03	70,0	2333,0
Jami	13,03	230	17,6
Mulklar bo‘yicha tarqalmagan	-	500	-
Jami	13,03	280,0	21,4

XIX ASR OXIRIDA ROSSIYANING AHOLISI (mln.kishi)

Rossiyaning qishloq aholisi	97,0
Savdo-sanoat sohasida	21,7
Ishlabchiqarishda qatnashmaydigan	6,9
Jami	125,6

Yirik burjuaziya va pomeshiklar, oily mansabdorlar va boshqalar	3,00
O‘ziga to‘q kichik xo‘jaliklar	23,1
Eng kambag‘al xo‘jaliklar	35,8
Proletarlar (22 mln.) va yarim proletariylar	8,7

ROSSIYANING XALQ MAORIFI (1894-1917-yillarda)

1894-yildan to 1913-yilgacha Xalq Maorifi Vazirligiga mahalliy hokimiyat tomonidan ta'lim uchun ajratilgan kreditlar miqdori 70 mln.rubldan 300mln.rublga oshdi.

1913-yilning boshida xalq maorifining umumiy byudjeti 500 000 000 rubl oltinga yetdi.

Dastlab o'qish bepul edi, 1908-yildan boshlab ta'lim olish majburiy etildi.

1908-yildan boshlab Rossiyada har yili 10 ming maktab ochilardi, 1913-yilga kelib ularning umumiy soni 100 mingdan oshdi.

Rossiya ayollarning oily ta'lim olishi bo'yicha XX asrda Yevropada birinchi o'rinni egallardi. Ta'lim olish uchun talabalar yiliga 50 rubldan 150 rublgacha to'lardilar, shunga qaramasdan moddiy nochor talabalar pul to'lovlaridan ozod etilardi.

ROSSIYADA 1904-YILDA TURMUSH TARZI

Spirтли ichimliklar bilan savdo qiluvchi muassasalar soni – 71313ta, ulardan vino mahsulotlari bilan savdo qiluvchi do‘konlar – 28749 ta va traktirlar – 5745.

Bitta ishchilar uchun yakshanba maktabi Xalq Maorifi Vazirligi ro‘yxatida 10,100 kv.verstga.

Bir qovoqxonona har 284km.verstga to‘g‘ri kelsa, shu orada xalqni ichmaslikga chorlovchi davlat qaramog‘idagi 1 ta ma‘rifiy muassasa esa har 1722 kv.verstda bor edi.

Restorandagi uzoqroq nomer taxminan 30 rubl, eng qimmat konyak esa taxminan 60 rubl, Moskvada ishchi bir oyda salkam 30 rubl topardi.

XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA SHAHARLARI

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiyaning keskin o‘shishiga qaramasdan shaharlar hayoti achinarli ahvolda edi.

80% shaharlarda tunash joylari bo‘lmagan.

Arzon xonali uylar faqat 29 ta shaharda mavjud bo‘lgan.

230 ta shaharda kasalxonalar umuman bo‘lmagan bo‘lsa, 78 tasida esa hatto shifokorlar bo‘lmagan.

Dorixonalar 1,075 ta aholi punktlarida bor.

1840 ta aholi punktlaridan faqat ikkitasining ko‘chalari butunlay tosh yotqizilgan. 320 ta aholi punktlaridan umuman tosh yotqizilgan ko‘chasi bo‘lmagan. Faqat 192 ta shaharda suv quvurlari yotqizilgan, boshqalarida esa aholi daryolar, ko‘llar va quduqlar suvini ishlatganlar.

ROSSIYANING MEHNAT QONUNCHILIGI (1882-1917-yillarda)

Bolalar mehnati 12 yoshgacha taqiqlab qo'yilgan, voyaga yetmagan va ayol jinsiga mansublar kechki soat 9 dan to 5 ertalabgacha fabrikalarga yollanib ishlolmasdilar.

1882-yilda 12 yoshdan 15 yoshgacha bolalar mehnatini tartibga soluvchi maxsus qonun qabul qilindi.

Ishchilar ittifoqlarining borligini hukumat 1906-yili tan oldi.

Ishchilarning xavfsizligini ta'minlovchi maxsus qonunlar 1-Davlad Dumasiga chaqiriqdan oldin qabul qilingan edi.

1912-yilda, AQShning o'sha paytdagi Prezidenti V.G.Taft oshkora omma oldida shunday aytdi: “-Sizning imperatoringiz shunday mukammal qonunchilik yaratganki, qaysiki biror demokratik davlat shunday qonunlar bilan maqtana olmaydi”.

STOLIPIN AGRAR ISLOHOTI

1861-yilgi islohotlardan soʻng, dehqonlar shaxsiy yer-mulk egasi boʻlolmadilar, yaʼni yer maydonlari aslida jamoalarga tegishli boʻlgan, qaysiki oʻz jamoalari aʼzolariga ishlatish uchun berilardi. 1906-yilning 9-noyabridan “Stolipin qonun”iga binoan, bu qaramlik bekor etildi.

1913-yildayoq 2 mln. dehqonlar oilasi oʻzlarining chek yerlariga ega boʻlib, jamoadan chiqdilar. I-jahon urushi boshlanishidan bir necha oy oldin 43% jamoa yerlari shaxsiy mulkga aylantirildi.

Ahamiyati jihatidan ikkinchi islohot tez orada koʻzga koʻrinarli natijalar koʻrsatdi. 1912-yildayoq Angliyaga chiqarilgan yogʻning bahosi 68 mln.rublni tashkil etdi. Bu oʻz navbatida esa Sibir konlaridan qazib olinadigan oltinning bahosidan ikki barobar koʻp edi. Goʻshtning isteʼmoli esa 1913-yilda aholi jon boshiga 88 kg tashkil etdi.

Agrar ishlohot faqat birinchi bosqichgina edi, xolos. Rossiyaning tubdan oʻzgarishlarida, uning orqasidan boshqa islohotlar kelar edi. Shunday qilib 1927-1932-yillarda koʻzda tutilgan ediki Rossiyaning Yevropa qismidagi shosse va temir yoʻllar tizimini Gʻarbiy Yevropa davlatlari darajasiga yetkazish. Ammo islohotlar boshlanganidan besh yil oʻtib, 1911-yilning 1-setabrida Stolipin oʻldirilgan edi. Bu haqda “Daily Telegraph” shunday yozgan edi: “Uning oʻlimi nafaqat Rossiya, balki barcha Yevropa davlatlari uchun ogʻir yoʻqotishdir”.

MOSKVADA ISHCHI 1913-YILDA

Oʻrtacha ishchining maoshi kuniga 1rubl 20 kopeyka yoki bir oyda taxminan 30 rublni tashkil etardi.

Har kunlik ovqatlanishi uchun ishchining bir oylik maoshing 80% ini sarflashga majbur edi (vaholanki narxlar shunday edi: 1 kg oq non – 12 kopeyka, 1kg kartoshka – 2 kopeyka, 1 kg mol goʻshti – 60 kopeyka, 1 kg yogʻ – 90 kopeyka, 1 litr sut – 8 kopeyka).

15 m² maydonga ega xona uchun ishchi har oyi maoshining 10% ini bergan. Eng arzon xonalar 3,5-4 rubl turgan.

Davolanishga sarflanajak pul oila budjetidan boʻlgan. Shifokor qabuli – 20 kopeyka, tayinlangan dori – 10 kopeyka turgan. Garchi salkam barcha shifoxonalarda kambagʻallar uchun bepul palatalar boʻlgan.

1914-yilda ishchilar va dehqonlarning bolalari koʻplab Moskva institutlarining 40% taʼlim oluvchilarini tashkil etgan.

1912-YILDA ROSSIYA VA G'ARB DAVLATLARI IQTISODIYOTINING UMUMIY TASNIFI

	O'lchov birliklari	Rossiya	AQSh	Angliya	Germaniya	Fransiya
Aholisi	mln. kishi	174	97	46	68	40
Milliy boyligi	mlrd.dollar	58	200	70	80	53
Milliy boylkning 1ta odamga ulushi	dollar	336	2062	1522	1184	1448
Davlatning milliy daromadi	mlrd.dollar	7,5	344	10,9	10,5	7,3
1ta odamniga milliy daromadning ulushi	dollar	43	351	237	154	183
Dehqon xo'jaliklarining soni	mln	180	6,1	0,2	2,5	6,2
Har 10 ming aholiga temir yo'llarning uzunligi	km	4,1 Yevropadagi qismida	42,3	8,2	9,6	12,7
Shosse yo'llarining uzunligi har 10 ming aholiga	km	1,8 Yevropadagi qismida	ma'lumotlar yo'q	56	41	144

1913-YILDAGI DEHQON XO‘JALIKLARI TAQSIMOTI (% larda)

Kambag‘allar	65
O‘rta hollar	20
Kulaklar	15

Otlari bo‘lmaganlar	30
Xo‘jalik asboblari bo‘lmaganlar	34
Ekinlari bo‘lmaganlar	15

1911-1915-YILLARDA O‘RTACHA HOSILDORLIK (har desyatnadan pudlarda)

Davlatlar	Bug‘doy	Javdar	Suli	Kartoshka
Rossiya	45	54	51	489
AQSh	69	68	77	440
Angliya	146	ma‘lumot yo‘q	119	1012
Germaniya	146	120	127	904
Fransiya	86	68	83	570

BIRINCHI JAHON URUSHIDA QATNASHGAN DAVLATLAR

Kimni tomonida	Davlatlar	Aholilarining soni	Armiyaga chaqirilganlarning soni
Germaniyaning tomonida	Germaniya Avstro-Vengriya Turkiya Bolgariya	156,4 mln kishi	25,5 ming kishi
Antanta tomonida	Rossiya Fransiya Yaponiya AQSh Serbiya va boshqalar	1368 mln kishi	43868 ming kishi

BIRINCHI JAHON URUSHINING OQIBATLARI

Davlatlar	Frontdagi yo‘qotishlar (mln. kishi)	O‘limming yuqoriligi va tug‘ilishning pastligidadan yo‘qotishlar (mln. kishi)	Jami (mln. kishi)	1914-yilgi aholidan % nisbatida	Urushning sarf-xarajati	
					Davlat boyligidan % nisbatida	mln.dollar
Fransiya	1,4	2,0	3,4	8,0	19,4	11208
Angliya	0,7	1,0	1,7	3,7	34,5	24143
Germaniya	2,0	4,2	6,2	10,0	24,7	19894
Avstro-Vengriya	1,4	4,4	5,8	11,0	18,1	5438
Italiya	0,5	1,6	2,0	6,0	20,6	4489
AQSh	0,08	0,32	0,4	0,4	8,8	17337

Urush harbiy jihatdan qudratli davlatlarning milliy boyliklarining 1/3 qismini komiga tortdi. 1772-1913-yilgacha bo‘lib o‘tgan barcha urushlar 6 mlrd dollar turgan bo‘lsa, 1914-1918-yillarning urushi 80 mlrd dollarga tushdi.

O‘lganlar va jarohatdan vafot etganlar salkam 10 mln odamni, jarohatlanganlar esa 20 mlndan ortiq bo‘lgan. Undan tashqari juda ko‘p odamlar ochlik va kasalliklardan o‘lgan.

BIRINCHI VAQTINCHALIK HUKUMAT A'ZOLARI

Ministrlar Kengashining raisi va Ichki Ishlar vaziri	G.Ye.Lvov	
Tashqi Ishlar vaziri	P.N.Milyukov	Kadet
Harbiy va dengiz vaziri	A.I. Guchkov	Oktyabrist
Aloqa yo'llari vaziri	I.B.Nekrasov	Kadet
Savdo va Sanoat vaziri	A.I.Konavalov	Progressist
Moliya vaziri	M.I.Tereshenko	Partiyasiz
Maorif vaziri	A.A.Manuilov	Kadet
Muqaddas sinod ober-prokurori	V.L.Lvov	
Dehqonchilik vaziri	A.I.Shingarev	Kadet
Adliya vaziri	A.F.Kerenskiy	Eser

VERSAL TIZIMI VA UNING OQIBATI

1919-yilning 18-noyabrida o'tkazilgan Parij Tinchlik konferensiyasi Versal tizimining asosini tashkil etdi, unda 32 davlat vakillari ishtirok qilgandi. Sovet Rossiyasi esa chaqirilmagan edi. Yutqazgan davlatlar delegatsiyalari faqat tinchlik shartnomalarini imzolash uchun chaqirilgan edi.

Harbiy intervensiyani va oq gvardiyachilarni keng qo'llab quvatlash to'g'risida qarorlar qabul qilindi, Rossiyani (Ukraina, Kavkaz, Sibir, O'rta Osiyoga) bo'laklash xususida savol ko'rib chiqilgandi.

Germaniya bilan imzolangan tinchlik shartnomasi Versal shartnomasi deb ataladi. U 1919-yilning 28-iyunida imzolangandi, undan tashqari Avstriya, Vengriya, Turkiya, Bolgariya bilan ham tinchlik shartnomalari imzolangandi.

Fransiya: Elzas va Lotaringiyani qaytarib oldi, Saar viloyati Millatlar Ittifoqi boshqaruviga berildi. Millatlar Ittifoqining mandatlarini xaspo'shlab Angliya bilan birga, Germaniyaning mustamlakalarini bo'lib olishdi.


Germaniya: mustamlakalaridan ayrildi, Polsha mustaqilligini tan oldi va Poznan, Yuqori Sileziyaning qismi, Sharqiy Prussiyaning ba'zi tumanlari, Sharqiy Pomore – Polshaga qaytarib berdi; reparatsiya to'lashi belgilandi; umumiy harbiy majburiyat bekor qilindi; flot, aviatsiya, tankalarga egalik qilish taqiqlandi; harbiy-sanoat potentsiali cheklandi; armiyasi 100ming odamdan oshmasligi belgilandi.

Millatlar Ittifoqi yaratildi, uning ezgu rejalari amalda Angliya va Fransiyaning siyosiy quroliga aylandi. Yevropaning siyosiy xaritasini qayta tuzmoqda 17mln odam "miliy kam sonli xalq"larga aylandilar. AQSH taqsimotdan "benasib" qoldilar Sovet Rossiyasi atrofida kordon yaratilgan va G'arbiy Belorus bilan Ukraina, Bessarabiya hududlari tortib olingandi.

SOVET ROSSIYASINING HUDUDLARIDA INTERVENSIYA KUCHLARINING TA'SIRI

G'arbiy hududlar	Avstro-Vengriya, Germaniya, Polsha, Latviya, Estoniya
Janubiy hududlar	Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Turkiya, Ruminiya
Uzoq Sharq	AQSh, Angliya, Italiya, Fransiya, Yaponiya
Kavkazorti	Angliya, Turkiya
Shimoliy hududlar	AQSh, Angliya, Fransiya
O'rta Osiyo	Angliya

FUQAROLAR URUSHI DAVRIDA QIZIL ARMIYANING SONI



**1920-YILDA MOSKVADA BIR ISHCHINING KUNLIK OLADIGAN
MAHSULOTLAR NORMASI**

Non	225 gr
Go'sht yoki baliq	7 gr
Shakar	10 gr
Tuz	12 gr

PRODRAZVERSTKANI MAHSULOT SOLIG'I BILAN ALMASHTIRISH HUSUSIDAGI MASALA VA UNING YECHILISH BOSQICHLARI

1918-yilning 30-oktabrida mahsulotlardan olinadigan soliqni natura bilan olish hususida qonun qabul qilingan, ammo hayotga tadbiq etilmagan.

L.D.Trotskiy 1920-yilning fevralida MQ yig'ilishida soliq va uni razverstka o'rniga almashtirish tog'risida taklif bilan chiqdi, ammo MQ buni rad etdi va shunda u mehnatni militarizatsiyalashtirish to'g'risida savolni o'rta tashladi.

1920-yilning dekabrda Sovetlarning VIII syezdida soliq hususida savolni mensheviklarning sardorlaridan biri F.I.Den tomonidan o'rta tashlandi.

Sovetlarning VIII syezdi konferensiyasida bo'lgan majlisda mahsulot solig'i to'g'risida savol qo'yilgan edi, ammo syezdga chiqarilmagandi. Chunki syezdda Leninning "dehqonlarni davlat tomonidan majburlash"ga o'tish shartligi va qishloq xo'jaligini kollektiv qayta o'zgartirish tog'risidagi g'oyasi ufarardi.

Va nihoyat, 1921-yilning 8-fevralida, bu savol Politbyuroda muhokamaga qo'yiladi. Komissiya tuziladi va 16-fevraldan muhokama boshlash to'g'risida qaror qabul qilinadi.

24-fevralda komissiya MQ Plenumiga loyhani taqdim etadi.

1921-yilning mart oyida bu savol partiyaning X syezdi va Sovetlar syezdi qo'llab quvvatladi.

YANGI IQTISODIY SIYOSAT(NEP)GA O‘TISHNING SABABLARI

Ekin maydonlarining qisqarishi, faqat $\frac{1}{4}$ ilgari ekin hajmiga erishishga muvaffaqat bo‘ldi, chorvachilikning va texnik ekinlarning qisqarishi.

1921-yilning bahoridagi ijtimoiy-siyosiy krizis yuzaga keldi, qaysiki bo‘lib o‘tgan qator qo‘zg‘alonlar keskinlashtirdi:

- 1920-yilning avgustida A.S.Antonov boshchiligida Tambov va Voronej guberniyalarida bo‘lgan dehqonlar qo‘zg‘aloni;
- O‘rta Povoljya, Don, Kubanda isyonlar o‘chog‘i;
- Petlyurovchilar va Maxnovchilar guruhlarining Ukrainada harakatlari;
- O‘rta Osiyoda bosmachilarining faollashuvi;
- G‘arbiy Sibirning isyonchilari fevral-mart oylarida bir necha ming odamdan tuzilgan qurollangan guruhi deyarli butun Tyumen guberniyasi, Petropavlosk, Kokchetav va boshqa hududlarni bosib olishib, 3 haftaga Sibir bilan mamlakat markazi bog‘lovchi temir yo‘l aloqasini uzib qo‘yishadi;
- 1921-yilning 28-fevralida Kronshtadda soldatlar va dengizchilar qo‘zg‘aloni o‘t oldi

XX ASRNING 20-YILLARDA KOMMUNISTIK HARAKAT

1918-yilda Bolsheviklar Rossiyada va 18 ta kommunistik partiyalar butun dunyoda xalq ommasini kapitalistik tuzumga revolutsion hujum qilish va proletariat diktaturasini o'rnatmoqga da'vat etdilar.

1919-yilning martida Kominterning Ta'sis Kongressi Moskvada bo'lib o'tdi. 1921-yilga kelib kompartiyalarning soni 48ga yetdi.

133 kun Vengriya, 2 hafta Slovakiya, 2 hafta Bavariya sotsialistik respublikalari umr ko'rdi – bu esa kompartiyalarning birinchi tajribasi edi.

Ammo 1921-1923-yillar oralig'ida revolutsion harakatlarning ancha susaygani sezildi: Vengriyada oq terrorning zo'rayishi; 1922-yilda Italiyada fashistik tuzumning o'rnatilishi; 1923-yilda Gamburg va Bolgariyada bostirilgan revolutsion harakatlar – bilvosta ta'sir ko'rsatdi.

Kommunistlar kapitalizmga hal qiluvchi hujum qilishga da'vat etishardi, zero Komintern ta'kidlaganiday burjuaziya tuzumining barqarorligi o'tkinchi va turg'un emas.

XX ASRNING 20-YILLARIDA SOTSIAL-DEMOKRATIK HARAKAT

Oktabr revolutsiyasi sotsial-demokratlar va kommunistlar orasini yanada ko'proq bo'linishiga olib keldi.

sotsial-demokratlar:

- Bolsheviklarning tomonidan zo'rvonliklarni qoraladilar, proletariat diktaturasini rad etdilar;

- Hech qanday sotsial larzalarsiz jamiyatni isloh qilish g'oyasini olg'a surishdi.

- Yirik korxonalarining kuzatuvchi sovetlarida ishtirok etdilar.

- Sotsial-revolutsiyani inkor etdilar va joriy tizimni parlamentar yo'l orqali isloh etishga da'vat etdilar.

XX ASRNING 20-YILLARIDA KAPITALIZMNING RIVOJLANISHI

Urush va revolutsiyaning larzalaridan keyin 1924-1929-yillarda kapitalizm barqaror suratlarda oʻsishi kuzatildi;

- sanoatning yangi yoʻnalishlaritez suratda oʻsishi: elektrotexnika, avtomobilsozlik, aviatsiya, kimyo;

- neft va gazning uzluksiz qazib olinishi;

- kapital dunyosida pullarning barqaror harakati qayta tiklanishi;

- yirik ishlab chiqarish sohalarining monopolizatsiyalashining kuchayishi;

- 1928-yildagi sanoat ishlab chiqarishining hajmi 1913-yilga qaraganda – AQShda-70% ga, Fransiyada -43% ga, Germaniyada – 17% ga oʻsdi;

- keskin oʻsishni qishloq xoʻjaligi koʻrsatdi, ammo 20-yillarning soʻngida non talvasasi, sotilish krizisi bilan almashdi.

1929-1933-YILLARDA KAPITALIZMNING KRIZISI

Krizis taxminan 4 yil davom etdi, uning sabablari quyidagilar:

- 1929-yilda iste'mol bozori haddan tashqari tovarlar bilan to'lgani;
- 1932-yilda – sanoat ishlab chiqarish mahsulotlari 1929-yilga qaraganda – AQShda - 47% ga, Angliya - 16,5% ga, Fransiyada – 31% ga kamaytirilgan edi;
- qishloq xo'jaligida mahsulotlar xarid narxi fojeali darajada pasaydi;
- mahsulotlarning yuqori narxlarini saqlab qolish maqsadida ko'pincha don va chorva yo'q qilib tashlanardi;
- kapital olamida 35mln ishsizlar yuzaga keldi;
- moddiy yo'qotishlar taxminan 1-Jahon urushidan ko'rilgan zarar bilan mutanosib edi.

Bu muammoning yechimi topildi: monopolistik kapitalizmni davlat kapitalizmiga o'tishini tezlashishida.

20-30-YILLARDA SOVET ITTIFOQIDA ISHCHILAR SINFI

1926-1929-yillarda ishchilar sinfi 45% ga dehqonlardan va 7% ga hizmatchilardan chiqqanlar bilan boyidi.

Birinchi 5 yillikda xalq xo'jaligiga o'tgan 12,5mln dehqon va xizmatchilardan, 8,5mlni dehqonlardan edi

30-yillar davomida xalq xo'jaligidan ozod bo'lgan 15-20mln odam, ishchilar sinfining sonini 9mlndan 24mlnga yetkazishiga sharoit yaratib berdi.

1927/28 va 1928/29-yillarning qishlarida kollektiv shartnomalar qayta tuzilishi, tariflar islohoti, ishlab chiqarish normasining qayta ko'rib chiqilishi, tenglashtirishning kuchayishi, ba'zida alohida kategoriyalarda ishchilarning maoshi pasayishiga olib keladi.


Birinchi 5 yillik arafasida xalq xo'jaligida ishlayotgan dehqon va hizmatchilardan ishsizlar soni 12%ni(1,242 ming) tashkil etdi. 1930-yil 5 aprelda ishsizlar 1,08 ming, shu yilning 1-noyabrda esa atigi – 240 ming ishsizlar tashkiletdi. 1931-yilda SSSRda ishsizlik batamom barham topildi.

Yoppasiga ishchilar sinfining safi dehqonlar orasidan chiqqan vakillar bilan to'lishi o'z zamirida “shaxsga sig'inish” va ommani siyosiy manipulyatsiya (hammasiga aybdor “ziravorlar”) qilish, rejalarning azimligi esa mehnat g'ayratini oshirishiga, qo'shimcha ravishda buzg'unchilar bilan kurashishga tayanch bo'ldi.

1927-YILDA QISHLOQ XO‘JALIGINING AHVOLI

Dehqon xo‘jaliklarining soni	24-25mln	
Har bir dehqon xo‘jaligi o‘rtacha egalik qilardi	yer	4-5 ga
	ot	1
	sigir	1-2
<p>Faqat 15% xo‘jaliklardagina u yoki bu qishloq xo‘jalik mashinalar ega edi. Har bir dehqon xo‘jaligining 5-6 ta a‘zosi bor edi, bunda 2-3 ishchi (yollanma emas), 28,3% dehqon xo‘jaliklarining ish hayvonlari; 31,5% - mehnat qurollari; 18,8%ida – sigirlari umuman bo‘lmagan.</p>		

20-YILLARDA SSSRDA YALPI DON HOSILI



BIRINCHI 5 YILLIK YAKUNLARI

Birinchi 5 yillikda ishlab chiqarish bo'yicha rejalarning amalga oshirilmay qolgan jabhalari:	Cho'yan	38% ga
	Po'lat	44% ga
	Prokat	45% ga
	Ko'mir	14% ga
	Paxta gazlama	41% ga
	Jun gazlama	66% ga
	Qumshakar	68% ga

Agar birinchi 5 yillikning 1-2-yillarida rejalarning ortig'i bilan bajarilgan bo'lsa, eski boshqarish usullari va idora etish shakllarining barham etilishi, ma'muriy-buyruq usullarining almashtirilishi, polyutaristik ruhdagi 5 yillik rejalarning qayta ko'rib chiqilishi, oxir oqibatda keng ko'lamda rejalarning bajarilmay qolishiga sabab bo'ladi.

BIRINCHI 5 YILLIKDA HAYOT DARAJASINING PASAYISHI

1931-yil, xususan 1932-1933-yillarda mamlakatning keng hududlarda ocharchilik qamrab oldi.

Yuzminglab nisbatan to'q dehqon oilalari xo'rlanishlar, lager azob-uqubatlari va maxsus ko'chirilganlar hayotiga girigtor (1930-yilning 1-yanvarida kelib 3,5mln dehqonlar majburan ko'chiriltirilgan edi) etilgandi.

Shahar aholisini keskin oshishiga qaramay oziq-ovqat sanoati pasaydi: go'sht ishlab chiqarish – 88% ga, shaker – 65% ga, hayvon yog'lari – 81% ga. 1932-yildagi oziq-ovqat ishlab chiqarishining ko'rsatgichi 1928-yildagi bilan barobar bo'ldi.

Don yetishtirish ko'rsatgichi esa 1928-yilga qaraganda kamaydi.

SSSRDA IKKINCHI 5 YILLIKNING YAKUNLARI

(1933-1937 yillar)

SSSR iqtisodiy mustaqillikga erishdi, texnik-iqtisodiy qoloqligini yengdi.

Amalda esa chetdan xo'jalik mashinalari va traktorlarni importi to'xtatilgan edi, qaysiki birinchi 5 yilda xarid qilish 1mlrd 150mln rublga tushardi.


SSSRda paxta mustaqilligiga erishdi(paxta importiga birinchi 5 yillikda 1mlrd dan ziyod mablag' sarflangan edi).

Cheteldan qora metal sotib olish xarajatlari birinchi 5 yillikda 1,4mlrd rubldan 88mln rublgacha qisqardi.

1936-yilda import mahsulotlarining solishtirma og'irlikda mamlakat umumiy iste'mol hajmining 1-0,7 foizga teng bo'ldi.

SSSRning savdo balansi 2-besh yillik oxiriga kelib faollashdi va daromad keltirdi.

20-30-YILLARDA SSSRDA MAORIF (ming.kishi)



SSSRDA QISHLOQ XO‘JALIGINING KOLEKTIVLASHTIRILISHI
(% larda)

yil	Dehqon xo‘jaliklari	Ekin maydonlari
1918	0,1	
1927	0,8	0,7
1928	1,7	2,3
1929	3,9	4,9
1930	23,6	33,6

Yil	Dehqon xo‘jaliklari	Ekin maydonlari
1931	52,7	67,8
1932	61,5	77,7
1937	93,0	99,1
1940	96,9	99,9

IQTISODIYOT USTIDAN MA'MURIY-BUYRUQ TIZIMINING G'ALABASI

1930-yilda tijorat kreditlari faoliyatiga barham berildi, Gosbank orqali markazlashtirilgan kreditlashtirishga o'tish amalga oshirildi.

1930-1931-yillarda soliqning ko'p turlari bitta – pul aylanmalari solig'i bilan almashtirildi.

1931-1932-yillarda BCHXlarni barham topishi bilan qaydnomalar ekspansiyasi shiddat ila boshlanadi. Shunday qilib, 30-yillarning oxiriga kelib mamlakatda 21ta industrial narkomatlar faoliyat olib boradi, qaysiki muassasalarning barcha iqtisodiy va xo'jalik ishlariga aralashadilar.

Birinchi 5 yillik rejalarda 50 ta yirik sanoat sohalari bo'yicha topshiriqlarini qamrab olgan bo'lsa, ikkinch 5 yillikda rejasida esa 120ta yirik va mayda sanoat sohalari bo'yicha tomshiriqlar yuklangan edi.

1930-yildan boshlab davlat yillik ekin rejalari, 1932-yildan MTSlar ish rejalari, 1935-yildan esa chorvachilikni rivojlantirish rejalari tuzishni boshlaydi.

Shunday qilib 30-yillarda iqtisodiyotni yuritishning yaxlit ma'muriy-buyruq tizimi shakllandi.

QISHLOQ XO‘JALIGINI ZO‘RAVONLIK BILAN KOLLEKTIVLASHTIRISHNING OQIBATLARI

1932-1933-yillarda millionlab odamlar lagerlardan va ochlikdan o‘ldilar.

Faqat 1924-1932-yillarda yirik qoramollar soni 20 mln boshga qisqardi, cho‘chqalar 2 barobarga, qo‘y va echkilar esa 2,5 barobarga qisqardi.

Industriyada olg‘a siljish, yengil va oziq-ovqat sanoatining susyishi, agrar sektorning stagnasiyasi, o‘ta markazlashtirilgan iqtisodiy hayot, nomutanosibliklar evaziga erishilgan edi.

Agrar sektor evaziga sanoat o‘shish sur‘atlari 1938-1940-yillarda, Rossiyaning 1900-1913-yillariga qaraganda 2-3 barobar yuqori edi.

SSSRning sanoat ishlab chiqarishining absolyut hajmi 30-yillarda dunyoda 2-o‘ringa(1913-yili esa 5-o‘rin edi) chiqadi.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish oshadi, masalan 1929-yilda bir xil hajmdagi qishloq xo‘jaligining mahsulotlarini 50-55mln yakka tartibdagi dehqonlar ishlab chiqargan bo‘lsa xuddi shu miqdorda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini 1940-yilda 30-35mln kolxoz va sovxoz ishchilari ishlab chiqardi.

1935-yilda kartochka tizimi bekor qilingandi.

“BURJUA MUTAXASSISLARGA” QARSHI SIYOSIY JARAYONLAR

1928-yil – “Shaxtino ishi” – 53 kishidan 4 tasini oqlashdi, 11 kishi otib tashlashga hukum etiladi (ulardan faqat 5 tasi otib tashlangandi).

1930-yil – “ Ukrainani ozod qilish Midnechiskiy ittifoqi” ishi bo‘yicha ochiq siyosiy jarayon (ayblanuvchilar kursisida 40 dan ziyod kishi).

1930-yil – “kontrevolutsion” faoliyat olib borgani uchun “ Dehqonlar Mehnat Partiyasi”ning boshliqlari N.D.Kondratyev, A.V.Chayanov, L.N.Yurovskiy, A.G.Doyarenko ustlaridan ish.

1930-yil – sobiq pomeshiklar, professor A.Ryazansev va general E.Karatigin boshliq guruh ta’minot sohasida “zararli” ayg‘oqchi tashkilot sifatida fosh etildi (Hamma 46 kishi otib tashlandi).

1930-yilning 25-noyabridan 7-dekabrgacha – bir guruh ko‘zga ko‘rinarli texnik mutaxassislar ustidan ish – Prompartiya jarayoni.

1931-yil – MQ RSDIP (ЦК РСДП) byurosi (menschiviklar) ustidan jarayon.

30-yillar boshida o‘sib borayotgan ishchilar noroziligini, partiya-davlat boshliqlari “maxsuslar” tomonga burib yuboradilar.

30-YILLARDA MAJBURIY MEHNAT

Yoppasiga majburiy mehnatning ishlatilishiga zo‘ravonlik bilan kollektivlashtirish asos bo‘ladi. 1930-1931-yillarning o‘zidayoq, quloqlashtirish kampaniyasi davomida, faqat olis hududlarga 381 ming quloqlashtirilgan oilalar (har bir oilada 4 tadan 8 tagacha a‘zosi bo‘lgan) surgun etilgan, bu esa 1,7mln odam demakdir.

1930-yilda “Беломорстрой” tashkil etiladi. Qurilish boshida chikist Yagoda bo‘lgan, Belomoro-Baltiysk kanalini 100 ming mahbus qurgan. Qurilish davlat rejalashtirganidan 4 barobar arzonga tushadi. Xuddi shunday holatlar SSSRning boshqa hududlarida ham kuzatilgan.

Yeridan ajragan minglab dehqonlar uchun lagerlar, koloniyalar qurilgan. Agar 1930-yili ularning soni 279 ta bo‘lsa, 1940-yilning 1-martiga kelib ularning soni 528 taga yetdi.

1935-yilning bahorida 445 ming maxsus ko‘chirtirilganlar 1271 ta nizomsiz qishloq xo‘jalik artellarida va 640 ming esa – sanoatda ishlardilar.

PARTIYA MA'MURIY-BOSHQARUV TIZIMINING MARKAZIY BO'GINI

Partiyani keskin sonini oshirish siyosati, partiyaning sifatini pasaytirdi, bu esa o'z navbatida Stalin byurakriyasining manipulyatsiyasi uchun qulay vaziyatni tug'dirdi. 1927-yilgi ro'yxatga muvofiq ravishda partiya a'zolarining – 98% o'qimishli, 9,1% esa o'rta ta'limga ega bo'lishgan. Partiyaning a'zolari soni 1926-yilda – 1088 ming kishi, 1930-yilda – 2mln, 1941-yilning fevral oyiga kelib – 3,876 ming.

1929-1930, 1933-yillardagi partiya ichini tozalashlar, 1935-1936-yillardagi partbiletlar tekshirilishi va partbiletlar almashinuvi, 1937-1938-yillardagi “katta terror”, partiya hamda oppozitsion kayfiyatlarga barham beradi va jamiyatdagi keskinlikni “strelkachi”lar jazolashga qaratish bilan bartaraf etadilar.

20-yillar oxiridan asta-sekinlik bilan partiya ichki demokratiyasining susayishi:

- 1928-yildan – MQ Plenumlari, Politbyuro va Ogrbyuroning ish rejalarining joylarga jo'natilishi bekor etiladi;
- 1929-yildan – “ Известия ЦК ВКП(б) ” jurnali nashr etilishi to'xtatiladi;
- Syezdlar, konferensiyalar, plenumlar kamdan-kam chaqiriladigan bo'ldi (XII syezd 1923-yilda chaqirildi, XIII syezd – 1924-yilda, XIV syezd – 1925-yilda, XV syezd – 1927-yilda, XVI syezd – 1930-yilda, XVII syezd – 1934-yilda, XVIII syezd – 1939-yilda);
- 1934-yilda -Partiya va davlat boshqaruv organi nazorat qilishga huquqli ЦКК-ПКИ, ЦК ВКП(б) qoshidagi Partkontrol Komissiyasiga va CHK qoshidagi Sovkontrol Komissiyalariga qayta tuziladi.

30-yillar boshida partiya tomondan total ravishda nazoratni o'rnatmoq uchun hamma yoqda partkomlar va partyacheykalar tuziladi.

30-YILLARDA DAVLATNING XALQNI ALDASH QAMROVI

Davlat rahbarlari birinchi va ikkinchi 5 yillik natijalarini buzib talqin qilishadi. Shunday qilib, agar birinchi 5 yillik haqiqiy natijalari olsak, deyarli barcha sohalar bo'yicha rejalar bajarilmay qolingan. 1932-yilga 10 mln.tonna cho'yan olish rajalashtirilgan bo'lsa, Stalin 17 mln.tonnaga yetkazishni talab qiladi, amalda esa faqat 6,2 mln.tonna cho'yangina ishlab chiqiladi.

Ma'lum bo'lishicha sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'zaro nisbati soxtalashtirilgan. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, SSSR na birinchi, na ikkinchi va na uchinchi 5 yillikda ham industrial davlatga aylanmagan, faqat 60-yillard bunga erishdi. Chunonchi faqat 60-yillardagina sanotdan kelgan daromad davlatning milliy daromadidan (qiymati narxiga yaqin) qishloq xo'jaligidan tushgan ulushdan oshdi.

30-YILLARDA XALQNI MAFKURAVIY ALDASH YO‘NALISHI

Revolutsion kurashish an’analariga, sinfiy ongga, internatsionalistik proletariat tuyg‘usiga (Ispaniya va b.) suyanish orqali moddiy boyliklarga bo‘lgan ehtiyojni kompensatsiya qilish.

Ulkan islohotlarni amalga oshirishga bo‘lgan vatanparvarlik ruhiga tayanish, qahramonlashtirish va inson mehnatining kulti (staxanochilar, chkalovchilar va b.).

Sotsializmga ildamlash yo‘sinida xalq ommasida yuzaga kelgan savollarni yo‘qotish maqsadida, sinfiy kurashning tobora keskinlashish g‘oyasiga olg‘a surilgan. Shu maqsadda yolg‘ondan qalbakilashtirilgan siyosiy jarayonlar (“Shaxtino ishi”, “Prompartya” ishi, “ Ukrainani ozod qilish ittifoqi” va boshqalar) o‘tkazilgan.

Quloqlarga qarshi kampaniya ko‘zlagan asosiy maqsadi kollektivlashtirishni amalga oshirish, industrialashtirish uchun mablag‘ topish bo‘lgan.

“Boshliqlar”ni jazolash kompaniyasining maqsadi, hech bo‘lmasa jamiyatda poymol etilgan haq-huquqlarni birmuncha bo‘lsa ham, ijtimoiy adolatga bo‘lgan so‘rovni qondirish bo‘lgan. Partiya va harbiy nomenklaturasi ustidan siyosiy jarayonlar.


1938-yilda nashrdan “ВКП(б) tarixining qisqa kursi” chiqishi bilan xalqni mafkuraviy aldash juda keng ko‘lam yoydi.

30-YILLARDA NKVDNING LAGERLARIDAGI MAHBUSLARNING SONI

yillar	1-yanvarda	yillar	1-yanvarda
1930	179000	1936	839406
1931	212000	1937	820881
1932	268000	1938	996367
1933	334000	1939	1937195
1934	510000	1940	1344408
1935	725483	1941	1500524

Bundan tashqari yuz minglab odamlar maxsus ko'chirtirilganlar holatida edi. Shunday qilib, faqat 1932-yilning yanvarida maxsus posyolkalarda 1,4 mln surgun qilingan "quloqlar" mavjud edi. 1935-yilga kelib maxsus posyolkalarda 1 mln. 85 ming kishi bor edi.

**SSSRNING ROSSİYAGA QARAGANDA YIRIK SANOATING YALPI
MAHSULOTLARINI O‘SISH SUR‘ATLARI
(mlrd.rublda)**



30-YILLARDA FASHIZM VA MILITARIZMNING ASOSIY SHAKLLANISH BOSQICHLARI

<p>- 1933-yilning yanvarida Gitler hukumat boshlig‘i etib tayinlanadi; Reyxstag binosiga o‘t qo‘yiladi (1933-yil 27-fevral); 20 ming kommunistlarning xibsga olinishi; 1933-yilning yozida – fashistik tuzum shakllanishi o‘z nihoyasiga yetadi; Leypsig jarayoni (1933-yil sentabrda).</p>
<p>- 1934-yilning fevralida Fransiyada 20 ming fashist Burbon saroyini qo‘lga kiritmoqqa urinishdi.</p>
<p>- 1936-1939-yillarda Ispaniyada fashistlarning respublika tuzumini bostirishi.</p>
<p>- Yaponiyaning militarizatsiyalanishi, 1931-yilning sentabrda Manjuriyaning bosib olinishi, 1937-yilningi yul-avgust oylarida Yaponiya Xitoyning Shimoliy va Markaziy qismiga bostirib kiradi.</p>
<p>- Italiyaning Efiopiyani bosib olishi (1935-yil oktabr – 1936-yil may).</p>
<p>- Berlin-Rim-Tokio tajovuzkor bloki yuzaga keladi (1936-yilning oktabrida – german-italyan bitimi imzolanadi, 1936-yilnin noyabrida Germaniyava Yaponiya “Anti kommunistik pakt” ni imzolashadi).</p>
<p>- 1938-yilning marti – Avstriyaning Germaniyaga qo‘shib olinishi.</p>
<p>- 1938-yilning 29-30-sentabrda – Myunxen bitimi, Sudet viloyati va Chexoslovakiyaning boshqa hududlarini Germaniyaga qo‘shib olinishi.</p>
<p>- 1939-yil - Chexoslovakiyaning bosib olinishi.</p>

1941-YILNING QISHIGACHA SSSRNING OKKUPATSIYADAN KO'RGAN TALOFATI

Fashistlar okkupatsiya qilgan hududlar, qaysiki urushdan oldin:	Isti'qomad qilardi	mamlakat aholisining 42%
	Qazib olinardi	63% ko'mir
	Eritilardi	68% cho'yan 58% po'lat
	Ishlab chiqarilardi	84% shaker va boshqalar

URUSHDAN KEYING YILLARDA G'ARB DAVLATLARNING RIVOJLANISHIDA ASOSIY TENDENSIYALAR

Yirik monopolistik guruhlarining davlat bilan birikishi davom etadi.
Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Avstriyada 20-30% sanoat ishlab chiqarishi milliylashtirilgandi.
Ishlab chiqarish va kapitalning konsentratsiyalanishi davom etdi, ko'p tarmoqli kompaniyalar paydo bo'ldi.
Xo'jalik hayotining yuqori darajadagi internatsionalishi, transnatsional kompaniyalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.
50-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab sezilarli ravishda mamlakat miqiyosida davlatning iqtisod ustidan tartibga solishi keng yoyildi.
Iqtisodiy integratsiya kuchayadi. Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH) (1957-yilda – GFR, Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Luksemburg; 1973-yildan – Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya; 1981-yildan Yunoniston; 1986-yildan – Ispaniya, Portugaliya a'zo bo'ladilar) tuziladi.
1979-yildan YIH davlatlarining aholisi Yevroparlamentni saylashadi, qaysiki byudjetni nazorat qiladi. Siyosiy integratsiya ham amalga oshirilayapti.

ZAMONAVIY KAPITALIZM QIYOFASINING O'ZGARISHI

Zamonaviy kapitalizmning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi statik (turg'un) emas, tinimsiz o'zgarishlarga uchraydi.

Kapitalizm o'z potensialini yo'qotgani yo'q, u dinamiklik (jo'shqinlik) xususiyatiga ega, o'zgarayotgan sharoitlarga tez moslashishga qodir.

Kapitalizm – umuminsoniy qadriyatlarni saqlamoqlikka va rivojlantirishga, jahon sivilizatsiyasining rivoji uchun shart-sharoit yaratib beradi.

SSSR va boshqa davlatlarning sotsialistik davlat qurishdagi tajribasi, sinfiy kurashning oqibatlari, jahon progressining natijalarini, umuman olganda, kapitalizmning tadrijiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

70-yillar oxirida boshlangan ITI (Ilmiy-texnika inqilobi)ning yangi jarayoni va b.lar – ishlab chiqarish va undagi insonning o'rini o'zgartirishga juda kata ta'sir ko'rsatdi.

Bozor iqtisodiyoti va nazorat asnosidagi iqtisodiyotni birga qo'shishning inqilobiy usulini topish, ishchilarning boshqaruvda qatnashishi, rivojlangan ijtimoiy ta'minot tizimining yaratilishi, demokratik ruhdagi ijtimoiy hayotga intilish, o'zaro manfaatlarga va ishonchga asoslangan mamlakatlararo munosabatlar tizimiga moslashish qobiliyati, bularning hammasi kapitalizmga chuqur modifikatsiyalar ro'y berganidan dalolat beradi.

G'ARBDA ILMIIY-TEXNIKA INQILOBI VA UNING O'ZIGA XOSLIKLARI

- | |
|---|
| <p>- Ilmiy-Texnika Inqilobining tub mohiyati mashina-fabrika ishlab chiqarishidan, kompleks-avtomatlashtirilgan sanoat ishlab chiqarishiga o'tishda bo'lgan, bunda mashinalar tizimida qo'shimcha ravishda yangi bo'g'in – nazorat-boshqaruv moslamasi yuzaga keladi;</p> |
| <p>- Inson asta-sekinlik bilan texnik moslamalar qo'liga barcha ishlab chiqarish funksiyalarni topshiradi, shu qatorda aqliy faoliyat talab qiladigan ishlarni ham;</p> |
| <p>- Ishchining asosiy vazifasi etib avtomatlashtirilgan liniyalarni boshqarish, asboblarni sozlash va tuzatishdangina iborat bo'lib qoldi;</p> |
| <p>- Ilm-fan sanoatning hal qiluvchi kuchi sifatida kiradi, iqtisodiyotni o'sishini umumlashtiradi;</p> |
| <p>- ITI o'z navbatida mehnatda tanglikga sabab bo'ladi, ruhiy-asab va yurak-qontomir xastaliklariga olib keladi;</p> |
| <p>- ITI juda ko'p ishsizlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi;</p> |
| <p>- ITI professional bilimlarning tez eskirishiga olib keladi.</p> |

YIH DAVLATLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI O‘ZGARISHLARNING MOHIYATI

Yuqori mehnat unumdorligiga erishiladi, bunga – ishlab chiqarishni ratsionallashtirish va yangi sohalarni rivojlantirish sabab bo‘ldi.

70-yillar boshidan eng yuqori foyda ko‘rsatgichiga erishiladi.

Chet el kapitalining kirib kelishi kuchayadi, Yevropa bozorlarini ko‘zda tutgan holda - yangi sanoat quvvatlari yaratiladi.

Mahsulotlarning samaradorligini va raqobatbardoshligini ta‘minlash maqsadida - ishlab chiqarish bazasini qaytadan qurishadi.

Singish va qo‘shilishning to‘lqini misli ko‘rilmagan sur‘atlar bilan sodir bo‘lishi, G‘arbiy Yevropa davlatlar sanoatining strukturasi jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi, ya‘ni uning markazlashuvi sabab bo‘ldi.

YIHning rivojlangan iqtisodi nafaqat AQSh va Yaponiya bilan raqobatlasha olishi, balki, ular bilan teng huquqli hamkorlar bo‘la olardi.

Bozor richaglarining ahamiyatini oshirish va qolgan barcha to‘siqlarni olib tashlash yo‘li bilan - 1992-yilda YIH – mahsulot va xizmatlar, kapital va ishchi kuchining umumiy bozorini yaratadi.

YAPONIYANING IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI O‘ZGARISHLARNING MOHIYATI

Yangi iqtisodiy strukturaning yaratilishiga – ko‘p xarajat, energiya va xomashyo talab qilmaydigan, rivojlanishdan ildamlayotgan ilmiy asoslangan sanoat sohasi bilan bog‘liq.

Mamlakat iqtisodiyoti sezilarli darajada, uning o‘shish manbai sifatida – ichki talablarini qondirishga moslashgan.

Chet ellik hamkorlari bilan savdoda o‘zining avtomobilsozlik va elektr-mashinasozlik sohalaridagi ustunliklaridan foydalanadilar.

Kapital kiritish ko‘p o‘rinda asosiy ishlab chiqarishga emas, balki qo‘shimcha sanoat sohalariga yo‘naltirilgani uchun, bir qator sohalarning aniq qiyofasi yo‘qotadi

Yaponiya firmalari faol ravishda o‘zining ishlab chiqarishini AQSh, Yevropa, Osiyo va boshqa mintaqalarga ko‘chirishga harakat qiladilar. U yerlarda ishlab chiqarilgan ko‘plab turdagi tovarlar Yaponiyada ishlab chiqilgan mahsulotlardan hech ham farq qilmaydi.

SOVET TIZIMINING INQIROZ BOSQICHLARI (1985-1990-yillar)

1985-1988-yillarda: oxiriga yetkazilmagan qurilishlar 30 mlrd.rublga oshadi.

1984-1986-yillarda: ichkilikga qarshi kampaniya sabab har yili byudjet daromadi 10 mlrd.rublga pasayadi.

1985-1987-yillarda: jahonda neft narxlarining pasayishi sabab har yili tashqi savdodan keladigan sof daromad 21 mlrd.rublga kamayadi.

1988-1989-yillarda: oʻrtacha ish haqqining oʻsishi milliy daromad oʻsishidan koʻra 3 barobar tezroq roʻy beradi.

1989-yilning oxirida: sanoatning absolut hajmi pasayishi boshlanadi, tez surʼatdainflatsiya 15-20% ga oʻsadi, moliyaviy tizimning barbod boʻlishi, yuqori darajadagi inflatsiyaning tezlashishi roʻy beradi.

1991-yilning avgusti: fitna sodir boʻladi. 1991-yilning dekabrda – SSSR parchalanadi, Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi(MDH) tuziladi.

SOTSIALISTIK TIZIMNING QULASH SABABLARI

Sotsializm va uning ishlab chiqarish mablag‘lariga kelgan jamoat mulki ustidan hukumronligi asnosida sotsial jihatdan adolatli jamiyat qurishiga, insonni inson ekspluatatsiya qilishining yo‘qotilishiga va barchaning umumiy farovonlikga erishishi bo‘lgan umidlar o‘zini oqlamadi.

Amaliyotda shaxsiy mulkchilikni butkul tugatilishi va absolut ravishda davlat mulkining hukumronligi, oqibatida ishchilarning o‘z mehnatining natijasiga qiziqishi yo‘qoladi.

Davlat mulki xalqqa emas, jamiyatning mehnat natijalarini o‘zlashtiradigan byurakratik strukturalarga tegishli edi. Natijada xalqning zaruriy ehtiyojlarini ta‘minlab berolmaydigan iqtisodiyot qaror topadi.

Kommunistik partiyalarning monopolistic xarakterdagi hokimiyati, xalqni o‘z fikrini ochiq aytish va o‘z xohishi orqali hukumat strukturalariga saylayolmaydigan, nodemokratik siyosiy tuzumning yaratilishiga sharoit yaratadi

Sotsialistik g‘oyaning obro‘sigacha yetdi, kompartiya e‘lon qilgani deologik dogmalar haqiqiy hayot bilan ziddiyatga kirishdi.

Partiya – davlat byurakratiyasiga qarshi namoyishlar doim bostirilardi.

SHARQIY YEVROPA DAVLATLARIDA SOTSIALIZMNING MA'MURIY- BOSHQARUVINING BARBOD BO'LISHI

1989-yili Polshada T.Mozaveskiy boshliq hukumat tuziladi, 1990-yilda esa “Birdamlik” harakatining rahbari Lex Valensa Polsha prezidenti etib saylanadi. Davlat jadal sur’atda sotsiolizmdan kapitalizmga o‘ta boshlaydi.

1990-yilning bahorida Vengriyada demokratik saylovlarda “Vengriya demokratik forumi” g‘alaba qozondi, partiyaning sardori Yojef Antal hukumat boshligi bo‘ldi. 1990-yilning avgustida “Ozod Demokratlar Ittifoqi”ning raisi Arpad Gyons Vengriya prezidenti bo‘ladi

1989-yildagi siyosiy krizisdan so‘ng GDR 1990 yilning martida bo‘lib o‘tgan saylovlarda oppozitsion partiyalar g‘alaba qozondi va XDS sardori Lotarde Mazyer hukumat boshlig‘i bo‘ldi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish boshlandi.

1990-yilning 3-oktabrida GDR – GFRning tarkibiga kirdi.

1988-1989-yillarda Chexoslavakiyada “Xartiya 77” oppozitsion guruhining tarafdorlari – hukumatni tanqid etib jamiyatni bo‘linishiga erishadilar. 1989-yilning 17-noyabrida talabalar namoyishi o‘qqa tutilganidan so‘ng, “baxmal inqilobi”ning boshida turgan “Fuqarolik forumi” tuzildi. 1989-yilning oxirida – president etib Vatslav Gavel saylanadi, 1990-yilning iyunida esa saylovda oppozitsion kuchlar g‘alaba qozonadi. Dunyo xaritasida ikkita mustaqil davlat – Chexiya va Slovakiya Federativ Respublikalari paydo bo‘ldi.

1989-yilning 10-noyabrida Bolgariya prezidenti Todor Jivkov iste’fosidan so‘ng, VKPning jamiyatni yangilashga bo‘lgan urinishiga qaramasdan, “Demokratik Kuchlar Ittifoqi”ning sardori Jelyu Jelev prezident bo‘ldi.

Ruminiyada Timishoara va Buxarest shaharlarida dekabrda sodir bo‘lgan voqealardan so‘ng, harbiy kurash natijasida Chaushesku (1989-yil 22-dekabr) diktaturasi ag‘dariladi. Chaushesku va uning xotini qatl etiladi. “Milliylikni Qutqarish Fronti” sardori I. Iliyesku president qilib saylandi.

80-YILLAR OXIRIDA SHARQIY YEVROPA DAVLATLARIDA INQILOBLARNING NATIJALARI

Totalitar rejimlar oʻrniga, odatda har xil partiyalar va harakatlardan iborat koalitsion hukumatlar keladi: Xristian-demokratlar, liberallar va h.k.

Hukumatni tashkil qilgan barcha partiyalar: siyosiy plyuralizmga, huquqiy davlat barpo etishga, bozor iqtisodiyotiga oʻtishga, ijtimoiy adolatga erishni maqsad qiladilar.

Tashqi siyosat xususida yangi davlatlar eskidan qolgan bir tomonlama SSSRga yuzlanishdan voz kechib, “Yevropaga qaytish”ni yoqlab chiqdilar.

Davlatlar orasidagi asosiy farqni, eng muhim muammolarni qanday usulda va tezlikda hal qilishida boʻlgan.

Ommada keng qoʻllab-quvatlashni sotsial va sotsial-demokratik kuchlar emas, balki Xristian-demokratik shiorlar bilan chiqqan kuchlarni oldi.

Kommunistlar oppozitsion partiyalarga aylanishdi va siyosiy hayotning chetda qolib ketadi.

Antikommunistik kayfiyatlar kuchayadi, sotsialistik timsollar olib tashlanadi, shaharlar, koʻchalar va b. qayta nomlanadi, eski davlat bayramlari bekor qilinadi.

XALQARO SOTSIAL-DEMOKRATIYA XOZIRGI ZAMONDA

<p>Sotsialistik internatsionalga kiruvchi partiyalarning taxminan 20 mln a'zosi bor.</p>
<p>O'n millionlab saylovchilar bu partiyalarga ovoz berishadi.</p>
<p>80-yillar oxirida, 27 davlatda sotsial, sotsial-demokratik, leyboristik partiyalar hukumat tepasida yoki boshqa partiyalar bilan koalitsiyada boshqarishadi.</p>
<p>Bu partiyalar yollanma ishilar, o'rta qatlam va kam taminlanganlarning manfaatlarini ifodalovchilar sifatida chiqadilar.</p>
<p>Kapitalistik tizimni tan olgan holda, sotsial-demokratlar mehnatkashlar manfaatini himoyalovchi islohotlar o'tkazilishiga ko'maklashadilar.</p>
<p>Sotsial-demokratlar demokratiyaning ko'p variantlilikini va yangi ijtimoiy tuzum uchun kurashning ko'p xilliligini tan oladilar, iqtisodiyot masalalarida davlatning faol ishtiroki uchun chiqishadi.</p>
<p>Sotsial-demokratlar, kommunistlarning asosiy -inqilobiy yo'l bilan jamiyat qayta qurmoqlik g'oyasiga qarshidirlar, balki kapitalizmni reformatsiya qilishga chorlaydilar.</p>

SOBIQ SSSRNING SO‘NGGI YILLARI

1990-1991-yillar – Jahonda neft narxining past holda saqlanib turilishi sovet davlati iqtisodini o‘nglanmas darajaga tushirib qo‘ydi
1991-yil yanvar – Quvayturushi
1991-yil avgust – SSSRda davlat to‘ntarishiga urinish

1990-yil – Sobiq sovet davlatining birinchi va so‘nggi prezidenti M.S.Gorbachev Tinchlik bo‘yicha Nobel mukofotiga loyiq ko‘rildi
1991-yil iyul – Varshava shartnomasi mamlakatlari bloki tugatildi
1991-yil 8, 26 dekabr – SSSRning rasman va amalda barbod bo‘lishi, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining tuzilishi

XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA DUNYO

XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA DUNYO MUAMMOLARI

Tinchlikni saqlash muammosi
Enegetika muammosi
Ekologik muammo
Demografik muammolar
Ochlikmuammosi
Qashhoqlik muammosi
Kasalliklar muammosi
Xalqaro terrorizm muammosi

XX ASRNING SO‘NGGI O‘N YILLIGIDA DUNYO

1991-1992-yillar – Rossiya iqtisodiyotining butunlay izdan chiqishi.
1991-yil – dunyo siyosiy xaritasida mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi.
1991-yil – uglerod nanotrubchalarining kashf qilinishi.
1992-yil – AQSHda Rossiyaga yordam mazmunidagi “Ozodlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Akt” (Freedom for Russia and Emerging Eurasian Democracies and Open Markets) qabul qilindi.
1994-1996-yillar – Checheniston urushining birinchi davri.
1998-yil – AQSH tomonidan Iroqning havodan o‘qqa tutilishi.
1998-yil – Xalqaro kosmik stansiyaning ishga tushirilishi.
1999-yil – NATO alyansining Yugoslaviyadagi operatsiyasi.
1999-yil – Checheniston urushining ikkinchi davri.
2000-yil – Rossiya Federatsiyasi prezidentligiga V.V.Putinni kelishi.
2000-yil – dunyo aholisi soni 6 mlrd kishiga yetdi.

XXI ASRNING BOSHLARIDA DUNYO

2001-YIL
1-yanvar – insoniyat tarixida uchinchi ming yillik boshlandi.
Yugoslaviyaning sobiq yetakchisi Slobadan Miloshevichni harbiy jinoyatlarda ayblash bo‘yicha BMT Xalqaro tribunali jarayonining boshlandi.
11-sentabr – Nyu-York va Vashingtonda aviatsion terrorchilik hurujlari. 3000 mingga yaqin inson halok bo‘ldi.
7-oktabr – AQSH va uning ittifoqchi davlatlari qo‘shinlari Afg‘onistonga kiritildi. To hozirgi kunga qadar AQSH uchun bu kompaniya tugagani yo‘q.
2002-YIL
1-yanvar – Yevropa Ittifoqida yevro banknoti va tangasi muomilaga kiritildi.
Sharqiy Timor Indoneziyadan mustaqillikni qo‘lga kiritdi.
Baxrayn amirlikdan qirollikka aylantirildi.
Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkilotiga aylantirildi.
Rossiya va AQSh o‘rtasida Strategik hujum qurollarinin qisqartirish to‘g‘risida shartnoma imzolandi.
Afrika Birligi Tashkiloti Afrika Ittifoqiga aylandi.
Yaqin Sharq (Falatin-Isroil) inqirozini tartibga solish rejasining ("Yo‘lxaritasi") qabul qilindi. Lekin bu Falastin-Isroil munosabatlari barqarorlashuvini ta‘minlamadi.
2003-YIL
20-mart – AQSH va Buyuk Britaniya koalitsiya kuchlarining Iroq hududini bosib oldi va Saddam Husayn hokimiyati qulatildi.
Xalqaro jinoyat ishlari sudi o‘z faoliyatini boshladi.
Dunyo siyosatida ilk bora “rangli inqiloblar” uchquni kuzatildi.
2004-YIL
4-yanvar – MER-A deb ataluvchi Marsda yurish uchun yaratilgan marsoxod Mars yuzasiga muvaffaqiyatli

qo'ndirildi.
4-fevral – jahonning yirik ijtimoiy tarmog'i bo'lgan Facebook yaratildi.
Yevroitifoqning navbatdagi kengayishi. Ittifoq safiga 10 ta Yevropa davlati qo'shildi.
21-iyul – Dublinda o'tgan xalqaro konferensiyada astrofizik o'z ma'ruzasida 30 yildan buyon yechilmay kelayotgan qora tuynukda axborotning yo'qolishi muammosini hal qilishni namoyish etdi.
22-noyabr – 8-dekabr – Ukrainada “Zarg'aldoq inqilob”.
Yigirma yildan ziyod davom etayotgan fuqarolar urushidan keyin Afg'onistonda birinchi marta prezidentlik saylovlari o'tkazildi. Xamid Karzay Afg'oniston Prezidenti qilib saylandi.
2005-YIL
Qirg'izistonda «Lola inqilobi». Asqar Akayev Prezidentlikdan ketdi.
GFR tarixida birinchi ayol Angela Merkel Kansler etib saylandi.
2006-YIL
3-iyun – Chernogoriya referendum natijalariga ko'ra mustaqillikni qo'lga kiritdi va BMTning 192-a'zosiga aylandi.
24-avgust – Pluton sayyoralik maqomidan mahrum etildi.
2008-YIL.
17-fevral – Kosovo Serbiyadan mustaqillikni qo'lga kiritdi.
Avgust – Gruziya Janubiy Osetiyaga hujum qildi.
26-avgust – Janubiy Osetiya va Abxaziya Rossiya tomonidan mustaqil respublikalar sifatida tan olindi.
4-noyabr – AQShda prezidentlik saylovi va uning natijasida AQSH tarixida birinchi marta afroamerikalik Barak Obama prezidentlikka keldi.
2009-YIL.
16-aprel – Ikkinchi Chechen urushi nihoyasiga yetdi.
2010-YIL
10-aprel – Smolensk osmonida avia halokat.

2011-YIL
25-yanvar – Misrda Husni Muborak boshqaruviga qarshi ommaviy norozilik boshlandi. Bu chiqishlar oxir-oqibat butun mamlakatda tartibsizliklarni va qurolli to‘qnashuvlarga olib keldi hamda Husni Muborak is’tefoga chiqdi.
Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqning qator davlatlarida boshqaruv tuzumiga qarshi norozilik to‘lqinlari boshlandi.
11-mart – Yaponiya sohillarida kuzatilgan 8.9 magnitudali zilzila natijasoda Fukusima AESida yirik radiatsion avariya sodir bo‘ldi.
15-mart – Suriyada fuqarolar urushi boshlandi.
May – Usama Bin Laden o‘ldirilgan deb taxmin qilinadi.
9-iyul – Janubiy Sudan Sudandan mustaqillikni qo‘lga kiritdi.
20-oktabr – Liviya etakchisi Muammar Kaddafi o‘ldirildi.
31-oktabr – yer yuzida 7-millardchi odam tug‘ildi.
2013-YIL
15-fevral – Uralda meteorit tushdi.
16-fevral – 2012DA14 astroidi Yerga minimal yaqinlikda – 27000 km masofada uchib o‘tdi. Astornomiyaning butun tarixida bu holat Yerga eng yaqin yaqinlashuv sifatida qayd etildi.
21-noyabr – Ukrainada Yevromaydon boshlandi.
2014-YIL
fevral-mart – Qrim Rossiya Federatsiyasi tarkibiga qo‘shib olindi.
7-aprel – Sharqiy Ukrainada qurolli to‘qnashuvlar boshlandi.
2015-YIL
30-sentabr – Rossiya Suriyada harbiy operatsiya boshladi.
2017-YIL
KXDRda bir necha bor yadro quroli va ballistik raketalar parvozi sinovi o‘tkazildi.

XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA FAN SOHASIDAGI ASOSIY KASHFIYOTLAR

Internetning haddan ortiq tezlikda ommalashuvi va u bilan bog‘liq texnologiyalarning ommaviy rivojlanishi	Uglerod nanotrubkalarining kashf qilinishi
Kvant kompyuterlarining dastlabki namunalari yaratildi	Katta adron kollayderi ixtiro qilindi
Xiggs bazoni kashf qilqindi	Gravitatsion to‘lqinlarning kashf qilinishi

O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIKDAN KEYIN AMALGA OSHIRILGAN MILLIY VA JAHON MIQYOSIDAGI MUHIM O‘ZGARISHLAR

1991-YIL
1991-yil 31-avgust – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 12-chaqiriq navbatdan tashqari 6-ssesiyasida O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘riida Oliy Kengash bayonoti va O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida” Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e‘lon qilish to‘g‘risida” qarori qabul qilindi.
1991-yil 7-sentyabr – O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil etildi.
1991-yil 24-sentyabr – Toshkentda “El” xalqaro uyushmasining tashabbusi bilan o‘zbeklar (turkistonliklar)ning birinchi xalqaro uchrashuvi bo‘ldi.
1991-yil 30-sentyabr – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan Latviya Respublikasi, Litva Respublikasi va Estoniya Respublikasining mustaqilligi e‘tirof etildi.
1991-yil 1-oktyabr – Olmaota (Qozog‘iston) mustaqil davlatlarining Iqtisodiy hamjamiyati to‘g‘risidagi axborotni 12 respublika rahbarlari, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ham imzoladi.
1991-yil 1-oktyabr – O‘zbekiston Respublikasini suveren respublika deb ilk bor Gruziya davlati tan oldi.
1991-yil 18-oktyabr – Moskvada sakkiz respublika (Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iston, Tojikiston, Rossiya, Turkmaniston, O‘zbekiston) rahbarlari suveren respublikalarining Iqtisodiy hamkorligi to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar. Shartnomani SSSR Prezidenti M.S.Gorbachev imzolab tasdiqladi.
1991 yil 4 dekabr – Marokash qirolligi O‘zbekiston Respublikasini suveren respublika deb tan oldi.
1991-yil 8-dekabr – Belorussiyaning Belaya Veja qo‘riqxonasi (pushchasi)da Rossiya, Ukraina va Belarus rahbarlari Boris Nikolayevich Yelsin, Leonid Makarovich Kravchuk, Stanislav Stanislavovich Shushkevich o‘zaro bitim imzolab, SSSR tugatilganligi va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) tashkil etilganligi

rasman e'lon qilindi.
1991-yil 16-dekabr – Turkiya xalqaro miqyosda O‘zbekiston Respublikasini suveren respublika deb tan olgan dastlabki davlat bo‘ldi.
1992-YIL
1992-yil 2-yanvar – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Maxkamasining “1992 yilda O‘zbekiston Respublikasining iste’mol bozorini himoya qilish to‘g‘risida” Qarori qabul qilindi.
1992-yil 16-17-fevral – Tehron (Eron islom Respublikasi)da bo‘lgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti kengashi ishida birinchi marta Ozarbayjon, Turkmaniston va O‘zbekiston, shuningdek, Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston delegasiyalari qatnashdi hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining a‘zosi bo‘ldi. (Tashkilotga 1985 yil Eron, Turkiya va Pokiston tomonidan asos solingan).
1992-yil 19-fevral – O‘zbekiston AQSh bilan diplomatik aloqa o‘rnatdi.
1992-yil 21-fevral – O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi.
1992-yilning 26-fevral – O‘zbekiston Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) ishtirokchisi hisoblanadi.
1992 yil 20-mart – Rossiya O‘zbekiston Respublikasini suveren respublika deb tan oldi. O‘zbekiston Respublikasi Rossiya Federasiyasi bilan diplomatik aloqa o‘rnatdi.
1992-yil 22-mart – O‘zbekiston xalqaro Olimpia qo‘mitasiga a‘zo bo‘ldi.
1992-yil mart – O‘zbekiston xalqaro standartlashtirish tashkilotiga a‘zo bo‘ldi.
1992-yil 27-aprel – O‘zbekiston Respublikasi Xalqaro valyuta fondiga a‘zo bo‘ldi.
1992-yil 30-aprel – O‘zbekiston Yevropa Taraqqiyot va Tiklanish Banki a`zosiga aylandi.
1992-yil 25-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ga a‘zo bo‘ldi.
1992-yil 13-iyul – O‘zbekiston Respublikasi Xalqaro mehnat tashkiloti (HIT)ga qabul qilindi.
1992-yil 9-11-avgust – Shahrisabzda Amir Temur xotirasiga bag‘ishlangan o‘zbek milliy kurashi bo‘yicha birinchi xalqaro musobaqalar bo‘lib o‘tdi.
1992-yil 10-avgust – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo‘mitasi tashkil etildi.

1992-yil 21-sentabr – O‘zbekiston Respublikasi Xalqaro Valyuta Fondiga a‘zo bo‘ldi.
1992-yil sentabr – O‘zbekiston Butunjahon bankining teng huquqli a‘zosi
1992-yil oktyabr – O‘zbekiston Respublikasi Parlamentlararo ittifoqning a‘zosi bo‘ldi.
1992-yil 16-noyabr – Toshkent shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumati o‘rtasida O‘zbekistonda BMT vakolatxonasini ochish to‘hrisida Bitim imzolandi (1993-yil 24-avgustda vakolatxona rasman ochildi).
1992-yil 23-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Jahon metereologiya tashkilotiga a‘zo bo‘ldi.
1993-YIL
1993-yil 10-iyun – “O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi o‘rtasidagi kelishuv” imzolandi.
1993-yil sentyabr – O‘zbekiston Respublikasi Xalqaro moliya korporasiyasi (XMK) a‘zoliciga qabul qilindi.
1993-yil sentyabr – O‘zbekiston Respublikasi Milliy olimpiada qo‘mitasi Xalqaro olimpiada qo‘mitasi tomonidan tan olindi (1995 yil apreldan teng huquqli a‘zosi).
1993-yil 26-oktabr – YuNESKOning Parijdagi qarorgohida O‘zbekiston YuNESKO tashkilotiga a‘zoliciga qabul qilish marosimi bo‘lib o‘tdi.
1993-yil – BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotining mintaqaviy vakolatxonasi O‘zbekistonda ish boshladi.
1993-yil – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston ishtirokida Orolni Qutqarish Xalqaro Jamg‘armasi (OQXJ) tashkil etilgan.
1994-YIL
1994-yil 4-fevral – O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil transporti xalqaro uyushmasiga a‘zo bo‘ldi.
1994-yil iyuldan – O‘zbekiston NATOning «Tinchlik yo‘lida hamkorlik» dasturida ishtirok etmoqda.
1994-yil 19-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va YUNISEF o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi Asosiy bitim Toshkent shahrida imzolangan.

1995-YIL
1995-yil yanvar – Toshkent shahrida xalqaro Qizil xoch qo‘mitasining Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun doimiy vakolatxonasi ochildi.
1995-yil iyul – YUNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi.
1995-yil iyul – Toshkentda EXHT ning aloqalar bo‘yicha mintaqaviy byurosi ochildi va faoliyat ko‘rsatmoqda.
1995-yil 26-avgust – Toshkent shahrida O‘zbekiston hukumati bilan YuNESKO o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida Memorandum imzolandi.
1995-yil 31-avgust – O‘zbekiston Respublikasi Osiyo taraqqiyot bankiga a‘zo bo‘ldi.
1995-yil 26-avgust – Toshkent shahrida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari bo‘yicha xalqaro seminar-kengash bo‘lib o‘tdi. Unda BMT Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik kengashi Islom konferensiyasi tashkiloti, BMT Xavfsizlik Kengashida ishtirok etuvchi mamlakatlar, MDHga a‘zo bo‘lgan mamlakatlar delegasiyalari, O‘rta Osiyo davlatlari va ularga qo‘shni bo‘lgan davlatlar vakillari ishtirok etdi.
O‘zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995-yil 15-16-sentabr kunlari Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag‘ishlangan Toshkent kengashi seminari bo‘lib o‘tdi.
Mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimov BMT Bosh Assambleyasining 1995-yil oktabr-noyabr oylarida bo‘lgan 50- yubiley sessiyasida qatnashib va nutq so‘zlab, bu nufuzli xalqaro tashkilot faoliyatini yaxshilashga doir takliflarni bayon etdi.
1996-YIL
1996-yil mart – “O‘zDAEWOAvto” qo‘shma korxonasining birinchi navbati ishga tushirildi.
1996-yil may –Mashhad (Eron) va Sarxs (Turkmaniston) o‘rtasida temir yo‘l qurilishi tugallandi. Bu yo‘l O‘rta Osiyo respublikalari – Turkmaniston, O‘zbekiston, Tojikiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston Respublikalarini Fors qo‘ltig‘iga olib chiqdi.

1996- yil 1- sentabr – Toshkentda Osiyoda yagona bo‘lgan Olimpiya shon-shuhrat muzeyi ochildi.
1996-yil oktabr – Parijda Amir Temurga bag‘ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi.
1996-yil 26-dekabr – “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida” Qonun.
1996-yil – respublikamiz AQSHda joylashgan kompyuter tizimi „Internet“ bilan bog‘landi va jahon yangiliklarini qabul qilib olish va axborotlar uzatish yo‘lga qo‘yildi.
1997-YIL.
1997-yil 10-yanvar – Toshkent shahrida O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasida Abadiy do‘stlik shartnomasi imzolandi.
1997-yil may-iyun – Toshkent, Chirchiq, Samarqand harbiy bilim yurtlari kursantlarining terma vzvodi Norvegiyada o‘tkazilgan „Kooperativ bankers – 97“ mashqlarida qatnashdi.
1997-yil 26-avgust – 1-sentabr – Samarqandda 1-xalqaro “Sharq taronalari” musiqa festivali bo‘lib o‘tdi. Unda 30 dan ortiq davlat vakillari qatnashdi. Har ikki yilda bir marta mazkur festivalni o‘tkazish an’anaga aylandi.
1997-yil oktabr – Toshkentda bo‘lib o‘tgan „Teatr: Sharq-G‘arb“ xalqaro festivalda Yaponiya, Hindiston, Syangan, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya teatr san’atkorlarining chiqishlari bo‘ldi.
1997-yil – O‘zbekistonning BMTga yo‘llagan afg‘on muammosini tinch yo‘l bilan hal qilish masalasida muloqot guruhi tashkil etish haqidagi taklifi asosida 1997-yilda BMT homiyligida „6+2“ guruhi tashkil etildi.
1998-YIL
1998-yil avgust – o‘zbek uchuvchi astronauti Solijon Sharipov amerikalik va rossiyalik 7 kishilik ekipaj tarkibida “Endever” kosmik kemasida kosmosga parvoz qildi.
1999-YIL
1999-yil may – Toshkentda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan sportchilar ishtirokida kurash bo‘yicha birinchi jahon chempionati bo‘lib o‘tdi.

1999-yil 1-iyul – O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasida sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi Bitim ratifikasiya qilindi.
1999-yil noyabr – Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Istanbulda bo‘lgan sammitida O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov qatnashdi.
1999 yildan boshlab O‘zbekistonda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) va Yaponiya tashqi savdo tashkiloti (JETRO) ning mintaqaviy vakolatxonalari, hamda O‘zbek-Yapon markazi faoliyat olib bormoqda.
2000-YIL
2000-yil 14-iyun – O‘zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyati to‘g‘risidagi qonuni qabul qilindi.
2001-YIL
2001-yil 15-iyun – Xitoyning Shanxay shahrida O‘zbekistonning Shanxay forumiga to‘la huquqli a‘zo bo‘lishi to‘g‘risidagi bayonot imzolandi. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov taklifi bilan Shanxay forumining nomi Shanzay Hamkorlik tashkiloti (ShHT) deb o‘zgartildi.
2002-YIL
2002-yil mart – AQSH bilan Strategik sherikchilik va hamkorlikning asoslari to‘g‘risidagi Deklaratsiyasi imzolandi.
2002- yil iyul –Toshkentda Xalqaro Vestminster universiteti.
2002- yil 18-20-oktabr kunlari BMT Bosh kotibi Kofe Annanning O‘zbekistonga tashrifi.
2002- yil oktabrda Xalqaro kurash assotsiatsiyasi Xalqaro sport federatsiyasi a‘zoligiga qabul qilindi.
2003-YIL
2003-yil 2-4-sentabr – Olmaotada bo‘lib o‘tgan Islom Taraqqiyot Bankining 28-Yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasini ITBning teng huquqli a‘zo sifatida qabul qilish borasida qaror qabul qilindi.

2004-YIL
2004-yil 1-yanvar – Toshkent shahrida Shanzay Hamkorlik tashkiloti (ShHT)ning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo‘mitasi faoliyat ko‘rsata boshladi.
2004-yil 16-iyun – O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida strategik sherikchilik to‘g‘risida bitim imzolandi.
2005-YIL
2004-yil dekabr – 2005-yil yanvar oylarida mamlakatimizda ilk bor ikki palatali parlamentga saylovlar bo‘lib o‘tdi.
2005-yil 14-noyabr – Moskva shahrida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov va Rossiya Prezidenti Vladimir Putin O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar.
2006-YIL
2006-yil 25-noyabr – Sankt-Peterburg sammitida Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (YevrAzES)ga O‘zbekiston Respublikasi a’zo bo‘ldi.
2006-yilda – O‘zbekiston-Koreya respublikalari o‘rtasida Strategik sheriklik to‘g‘risida qo‘shma deklaratsiyasi imzolandi.
2007-YIL
2007-yil 25-avgust – Samarqand shahrining 2750-yillik yubileyiga bag‘ishlangan tantanali marosim o‘tkazildi.
2008-YIL
2008 yil 3-aprel – O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov Buxarestda bo‘lib o‘tgan NATO / SEAP sammitida ishtirok etib nutq so‘zladi.
2008-yildan boshlab Toshkentda Singapur Menejmentni rivojlanish Instituti (MDIS) faoliyat yuritib kelmoqda.

2009-YIL
2009-yildan boshlab Toshkent shahrida Turin politexnika universiteti faoliyat yuritib kelmoqda.
2010-YIL
2010-yil 1-4-may –Toshkent shahrida OTB Boshqaruvchilar kengashining 43-majlisi o‘tkazildi, unda 2,3 ming kishi atrofida ishtirok etib, ularning 1,3 mingdan ortig‘i xorijiy vakillar bo‘ldi.
2010-yil 10-12-iyun –Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Toshkent Sammiti Ko‘ksaroy qarorgohida bo‘lib o‘tdi.
2011-YIL
2011-yil 2-oktabr – O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) a’zosibo‘ldi.
2012-YIL
17-fevral – Toshkentda “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning muhim sharti” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.
2013-YIL
2013-yil yanvarda Samarqand shahri hokimiyati va Florensiya provinsiyasi ma’muriyati o‘trasida Do‘stlik va hamkorlik shartnomasi imzolandi.
Aprel – “Zamonaviy uy-joy qurilishi – qishloq joylarini kompleks rivojlantirish va qiyofasini o‘zgartirish hamda aholi hayotining sifatini yaxshilash omili” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.
2013-yil 15-may – Shanxay shahrida Xitoyda birinchi marta Shanxay universiteti huzuridagi ShHT xalq diplomatiyasi ilmiy tadqiqot instituti negizida “O‘zbekiston tadqiqotlari va ta’lim almashuvlari markazi” ochildi.
2014-YIL
2014-yil 1-oktabr – Toshkent shahrida kompyuter, dasturiy injiniring va logistika sohalarida kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan Janubiy Koreyaning “Inha” universiteti filiali ochildi.

2015-YIL
8-aprel – 8-may – Toshkentda xalqaro jaz festivali bo‘lib o‘tdi.
11-iyun – BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun O‘zbekistonda bo‘ldi.
2015-yil 25-oktabr – O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasida strategik sherikchilikni chuqurlashtirish va kengaytirish to‘g‘risidagi qo‘shma bayonet imzolandi.
2016-YIL
2-sentabr – atoqli davlar arbobi, tan olingan siyosiy arbob, O‘zbekiston mustaqilligining asoschisi va Birinchi Prezidenti I.A.Karimov vafot etdi.
Sentabr – Oz‘bekiston Respublikalari Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma yig‘ilishida deputatlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi sifatida saylandi.
5-dekabr – Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.
2017-YIL
Aprel – respublika davlat televideniyesi “Xalqaro press-klub” teleloyihasini joriy qildi.
5-sentabr – jismoniy shaxslar uchun horij valyutalarining erkin konvertatsiyasiga ruxsat berildi
Yil davomida Prezident Sh. Mireziyoyev 3-marta Turkmaniston, 2-marta Qirg‘iziston, bir martadan Qozog‘izton va Rossiyaga tashrif buyurdi. Mazkur davlar rahbarlari ham O‘zbekistonda bo‘ldi. Shuningdek davlat tashriflari AQSh, XXR va Koreya Respublikasifa ham amalga oshirildi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DIPLOMATIK ALOQALAR O‘RNATGAN DAVLATLARNING RO‘YXATI

№	Davlat	Sana	O‘rnatish shakli
1.	Avstraliya	26.12.91 y.	Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida xatlar almashinuvi
2.	Xitoy Xalq Respublikasi	02.01.92 y.	Toshkent shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
3.	Vetnam Sotsialistik Respublikasi	17.01.92 y.	Toshkent shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
4.	Misr Arab Respublikasi	23.01.92 y.	Toshkent shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
5.	Mug‘uliston	25.01.92 y.	Toshkent shahrida imzolangan protokol
6.	Daniya qirolligi	25.01.92 y.	Notalar almashinuvi
7.	Yaponiya	26.01.92 y.	Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida xatlar almashinuvi
8.	Korea Respublikasi	29.01.92 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
9.	Korea Xalq Demokratik Respublikasi	07.02.92 y.	Toshkent shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
10.	Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi	18.02.92 y.	Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida xatlar almashinuvi
11.	Amerika Qo‘shma Shtatlari	19.02.92 y.	Prezidentlar o‘rtasida xatlar almashinuvi
12.	Saudiya Arabistoni Qirolligi	20.02.92 y.	Toshkent shahrida imzolangan protokol
13.	Malayziya	21.02.92 y.	Notalar almashinuvi
14.	Isroil Davlati	21.02.92 y.	Notalar almashinuvi
15.	Finlandiya Respublikasi	26.02.92 y.	Xelsinki shahrida imzolangan protokol
16.	Fransiya Respublikasi	01.03.92 y.	Toshkent shahrida imzolangan protokol
17.	Vengriya Respublikasi	03.03.92 y.	Budapesht shahrida imzolangan protokol
18.	Turkiya Respublikasi	04.03.92 y.	Toshkent shahrida imzolangan protokol
19.	Germaniya Federativ Respublikasi	06.03.92 y.	Notalar almashinuvi
20.	Belgiya Qirolligi	10.03.92 y.	Bryussel shahrida imzolangan shartnoma
21.	Gretsiya Respublikasi	16.03.92 y.	Notalar almashinuvi

22.	Meksika Qo‘shma Shtatlari	16.03.92 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
23.	Ispaniya Qirolligi	17.03.92 y.	Moskva shahrida imzolangan kommyunike
24.	Hindiston Respublikasi	18.03.92 y.	Toshkent shahrida imzolangan protokol
25.	Polsha Respublikasi	19.03.92 y.	Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida xatlar almashinuvi
26.	Yangi Zelandiya	11.03.92 y.	Notalar almashinuvi
27.	Rossiya Federatsiyasi	20.03.92 y.	Kiyev shahrida imzolangan protokol
28.	Italiya Respublikasi	24.03.92 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
29.	Avstriya Respublikasi	25.03.92 y.	Vena shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
30.	Kanada	07.04.92 y.	Notalar almashinuvi
31.	Shvetsiya Qirolligi	08.04.92 y.	Toshkent shahrida imzolangan Bitim
32.	Filippin Respublikasi	13.04.92 y.	Notalar almashinuvi
33.	O‘mon Sultonligi	22.04.92 y.	Moskva shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
34.	Suriya Arab Respublikasi	24.03.92 y.	Toshkent shahrida imzolangan Bitim
35.	Tailand Qirolligi	06.05.92 y.	Notalar almashinuvi
36.	Shvetsariya Konfederatsiyasi	07.05.92 y.	Xatlar almashinuvi
37.	Eron Islom Respublikasi	10.05.92 y.	Ashhobod shahrida imzolangan protokol
38.	Pokiston Islom Respublikasi	10.05.92 y.	Ashhobod shahrida imzolangan protokol
39.	Yaman Respublikasi	25.05.92 y.	Toshkent shahridagi qo‘shma bayonot
40.	Bahrayn Qirolligi	29.05.92 y.	Toshkent shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
41.	Lyuksemburg Buyuk Gersogligi	10.06.92 y.	Notalar almashinuvi
42.	Norvegiya Qirolligi	10.06.92 y.	Notalar almashinuvi
43.	Indoneziya Respublikasi	23.06.92 y.	Jakarta shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
44.	Jazoir Xalq-Demokratik Respublikasi	30.06.92 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
45.	Litva Respublikasi	05.08.92 y.	Notalar almashinuvi
46.	Portugaliya Respublikasi	12.08.92 y.	Notalar almashinuvi
47.	Janubiy Afrika Respublikasi	12.08.92 y.	Notalar almashinuvi
48.	Ukraina	25.08.92 y.	Kiyev shahrida imzolangan protokol

49.	Nigeriya Federativ Respublikasi	28.08.92y.	Notalar almashinuvi
50.	Laos Xalq Demokratik Respublikasi	10.09.92y.	Toshkent shahrida imzolangan protokol
51.	Bolgariya Respublikasi	sentabr 1992y.	Turkiyada imzolangan protokol
52.	Afg'oniston Islom Respublikasi	13.10.92 y.	Toshkent shahrida imzolangan protokol
53.	Vatikan davlati	17.10.92 y.	Toshkent va Vatikan shaharlarida imzolangan protokollar
54.	Bangladesh Xalq Respublikasi	15.10.92 y.	Toshkent shahrida imzolangan protokol
55.	Tojikiston Respublikasi	20.10.92 y.	Notalar almashinuvi
56.	Qozog'iston Respublikasi	23.11.92 y.	Notalar almashinuvi
57.	Birlashgan Arab Amirliklari	25.10.92 y.	Notalar almashinuvi
58.	Latviya Respublikasi	03.11.92 y.	Notalar almashinuvi
59.	Niderlandiya Qirolligi	24.11.92 y.	Notalar almashinuvi
60.	Tunis Respublikasi	26.11.92 y.	Toshkent shahrida imzolangan protokol
61.	Chexiya Respublikasi	01.01.93 y.	Notalar almashinuvi
62.	Slovakiya Respublikasi	01.01.93 y.	Notalar almashinuvi
63.	Turkmaniston	08.01.93 y.	Notalar almashinuvi
64.	Belarus Respublikasi	21.01.93 y.	Minsk shahrida imzolangan protokol
65.	Iordaniya Hoshimiylar Qirolligi	15.02.93 y.	Toshkentshahrida imzolangan protokol
66.	Qirg'iz Respublikasi	16.02.93 y.	Notalar almashinuvi
67.	Malta Respublikasi	25.02.93 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
68.	Braziliya Federativ Respublikasi	30.04.93 y.	Notalar almashinuvi
69.	Iroq Respublikasi	19.06.93 y.	Notalar almashinuvi
70.	Gvineya Respublikasi	24.06.93 y.	Notalar almashinuvi
71.	Argentina Respublikasi	09.09.93 y.	Moskva shahrida imzolangan qo'shma protokol
72.	Marokko Qirolligi	11.10.93 y.	Moskva shahrida imzolangan qo'shma protokol
73.	Gana Respublikasi	28.10.93 y.	Moskva shahrida imzolangan qo'shma protokol
74.	Albaniya Respublikasi	23.11.93 y.	Notalar almashinuvi

75.	Zambiya Respublikasi	01.02.94 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
76.	Kuvayt Davlati	08.07.94 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
77.	Gruziya Respublikasi	19.08.94 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
78.	Moldova Respublikasi	23.08.94 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
79.	Chili Respublikasi	15.09.94 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
80.	Chad Respublikasi	16.09.94 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
81.	Falastin Davlati	25.09.94 y.	Notalar almashinuvi
82.	Estoniya Respublikasi	25.10.94 y.	Notalar almashinuvi
83.	Yevropa Hamjamiyati Komissiyasi	16.11.94 y.	Notalar almashinuvi
84.	Maldiv Respublikasi	07.12.94 y.	Nyu-York shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
85.	Makedoniya Respublikasi	31.12.94 y.	Anqara shahrida imzolangan protokol
86.	Sloveniya Respublikasi	16.01.95 y.	Notalar almashinuvi
87.	Serbiya Respublikasi	18.01.95 y.	O‘zbekiston va sobiq Yugoslaviya Sotsialistik Respublikasi o‘rtasidagi notalar almashinuviga asosan
88.	Xorvatiya Respublikasi	06.02.95 y.	Notalar almashinuvi
89.	Kambodja Qirolligi	07.09.95 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
90.	Ozarbayjon Respublikasi	02.10.95 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
91.	Ruminiya	06.10.95 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
92.	Senegal Respublikasi	06.10.95 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
93.	Armaniston Respublikasi	27.10.95 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
94.	Venesuela Respublikasi	26.04.96 y.	Nyu-York shahrida imzolangan protokol
95.	Bosniya-Gersogovina	14.05.96 y.	Notalar almashinuvi
96.	Bruney-Darussalam	20.06.96 y.	London shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
97.	Efiopiya Federativ Demokratik Respublikasi	15.07.96 y.	Notalar almashinuvi
98.	Yamayka	08.08.96 y.	Nyu-York shahrida imzolangan qo‘shma

			kommyunike
99.	Mali Respublikasi	13.02.97 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
100.	Singapur Respublikasi	08.04.97 y.	Notalar almashinuvi
101.	Kipr Respublikasi	30.05.97 y.	Moskva shahrida imzolangan protokol
102.	Islandiya Respublikasi	25.09.97 y.	London shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
103.	Irlandiya Respublikasi	07.11.97 y.	Notalar almashinuvi
104.	Qatar Davlati	27.11.97 y.	Anqara shahrida imzolangan qo‘shma bayonot
105.	Sharqiy Urugvay Respublikasi	25.05.98 y.	
106.	Livan Respublikasi	22.10.98 y.	London shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
107.	Mavrikiy Respublikasi	04.08.99 y.	Bryussel shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
108.	Namibiya Respublikasi	30.08.99 y.	Moskva shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
109.	Shri-Lanka Demokratik Sotsialistik Respublikasi	11.10.99 y.	Moskva shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
110.	Peru Respublikasi	22.12.99 y.	Nyu-York shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
111.	Myanma Ittifoqi	08.02.01 y.	Nyu-York shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
112.	Kosta-Rika Respublikasi	07.06.01 y.	Nyu-York shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
113.	Paragvay Respublikasi	27.08.01y.	Seul shahrida imzolangan qo‘shma deklaratsiya
114.	Angola Respublikasi	31.05.02y.	Nyu-York shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
115.	Sudan	06.01.05y.	Notalar almashinuvi
116.	Komor orollari	21.05.05y.	Notalar almashinuvi
117.	Benin Respublikasi	17.08.05y.	Notalar almashinuvi
118.	Kuba Respublikasi	13.03.06y.	Toshkent shahrida imzolangan qo‘shma

			Deklaratsiya
119.	Chernogoriya	19.12.06y.	Notalar almashinuvi
120.	Gvatemala Respublikasi	09.02.07y.	Nyu-York shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
121.	Nikaragua Respublikasi	23.02.07y.	Nyu-York shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
122.	Gonduras Respublikasi	26.04.07y.	Nyu-York shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
123.	Dominikan Respublikasi	28.09.07y.	Nyu-York shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
124.	Zimbabve Respublikasi	18.01.08y.	Nyu-York shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
125.	Mavritaniya Islom Respublikasi	02.07.08y.	Notalar almashinuvi
126.	Andorra Knyazligi	01.12.09y.	Afina shahrida imzolangan protokol
127.	Fidji Respublikasi	16.06.10y.	Qo‘shma kommyunike
128.	Liviya Arab Xalq Sotsialistik Buyuk Jamoxiriyasi	27.10.10y.	Anqara shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
129.	Ekvador Respublikasi	19.07.11y.	Notalar almashinuvi
130.	Kolumbiya Respublikasi	02.10.12y.	Notalar almashinuvi
131.	Ko‘pmillatli Boliviya Davlati	28.11.12y.	Nyu-York shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
132.	Monako knyazligi	29.11.13y.	Parij shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
133.	El-Salvador Respublikasi	03.12.13y.	Nyu-York shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike
134.	Nepal Federativ Demokratik Respublikasi	26.01.18y.	Nyu-York shahrida imzolangan qo‘shma kommyunike

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINI E‘TIROF ETGAN, LEKIN
DIPLOMATIK ALOQALAR O‘RNATMAGAN DAVLATLARNING**

RO‘YXATI

№	Mamlakat	Sana
1.	Syerra-Lione Respublikasi	21.12.1991y.
2.	Botsvana Respublikasi	30.12.1991y.
3.	Panama	02.01.1992y.
4.	Jibuti Respublikasi	06.01.1992y.
5.	Gabon Respublikasi	10.01.1992y.
6.	Kabo-Verde Respublikasi	16.01.1992y.
7.	Ekvatorial Gvineya Respublikasi	17.01.1992y.
8.	Burkina Faso	25.01.1992y.
9.	Lesoto Qirolligi	29.01.1992y.
10.	Togo Respublikasi	10.11.1993y.
11.	Madagaskar	04.04.1994y.
12.	Somali Respublikasi	17.02.2004y.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TAKLIFLARIGA BINOAN QUYIDAGI TADBIRLAR YUNESKO BILAN HAMKORLIKDA XALQARO MIQYOSDA NISHONLANGAN

- 1994-yil - Mirzo Ulug‘bek tavvaludi 600 yilligi;
- 1996-yil - Amir Temur tavvaludi 660 yilligi;
- 1997-yil - Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi;
- 1998-yil - Imom Buxoriyning 1225 yilligi va Ahmad Farg‘oniyning 1200 yilligi;
- 1999-yil - “Alpomish” eposining 1000 yilligi;
- 2000-yil - Kamoliddin Behzodning 545 yilligi;
- 2001-yil - “Avesto” ning 2700 yilligi;
- 2002-yil - Tezmiz shahrining 2500 yilligi va Shahrizabz shahrining 2700 yilligi;
- 2003-yil - Abduxoliq G‘ijduvoniyni 900 yilligi;
- 2005-yil - Qarshi shahrining 2700 yilligi va Mamun akademiyasining 1000 yilligi;
- 2007-yil - Samarqand shahrining 2750 yilligi va Marg‘ilon shahrining 2000 yilligi;
- 2009-yil - Toshkent shahrining 2200 yilligi.

O‘zbekistonning YUNESKO bilan o‘zaro hamkorligi chet elda o‘zbek musiqa madaniyatini ommalashtirish imkoniyati bermoqda.

Jumladan, Samarqand shahrida YUNESKO shafeligida muntazam o‘tkazib kelinayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali bunga yorqin misol bo‘la oladi.

1995 yilda YUNESKO bilan hamkorlikda Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. Hozirgi kunda institutning 8 ta bo‘linma va 10 markazi, shuningdek, 34 ta YUNESKoga biriktirilgan maktablari O‘zbekistonda faoliyat yuritmoqda.

MUNDARIJA

Kirish	
Ishchilar sinfining asosiy siyosiy partiyalari	3
Germaniya Reyxstagida sotsial-demokratlarning vakillari	4
Fransiyada XX asr boshlarida deputatlar palatasida partiyalar orasidagi mandatlar taqsimoti	5
1870-1913-yillarda G‘arb davlatlarida o‘rtacha yillik o‘shish sur‘atlari	5
XIX asr oxiri XX asr boshlarida G‘arb davlatlarida aholining asosiy faoliyat sohalari bo‘yicha taqsimoti	6
XX asr boshlarida G‘arbiy davlatlarida ish tashlash harakatlari	7
XX asr boshlarida mustamlakachilik tizimi (%larda)	7
XX asr boshlarida ba‘zi davlatlarning mustamlakalari (hududi mln ²) (aholisi mln. odam)	8
XIX asr oxiri XX asr boshlarida jahonda neft qazib olish (mln.tonna)	9
XX asr boshlarida Rossiya iqtisodiga G‘arb davlatlarining kapital kiritishi	10
XX asr boshlarida Rossiyaning Yevropa qismida sanoat ishlab chiqarishining konsentratsiyasi	10
Rossiya sanoati (1894-1917)	11
Rossiyaning temir yo‘llari	12
Rossiya dehqonchiligi	13
Rossiyaning moliyasi	14
XX asr boshlarida Rossiyaning Yevropa qismidagi yerlarining taqsimoti	15
XIX asr oxirida Rossiyaning aholisi (mln.odam)	15
Rossiyaning xalq maorifi (1894-1917-yillarda)	16
Rossiyada 1904-yilda turmush tarsi	17
XX asr boshlarida Rossiya shaharlari	18
Rossiyaning mehnat qonunchiligi(1882-1917-yillarda)	19
Stolipin agrar islohoti	20
Moskvada ishchi 1913-yilda	21
1912-yilda Rossiya va G‘arb davlatlari iqtisodiyatining umumiy tasnifi	22

1913-yildagidehqonxo‘jaliklaritaqsimoti (%larda)	23
1911-1915-yillarda o‘rtacha hosildorlik (har desyatinadan pudlarda)	23
Birinchi Jahon Urushida qatnashgan davlatlar	24
Birinchi Jahon Urushining oqibatlari	25
Birinchi Vaqtinchalik Hukumat a‘zolari	26
Versal tizimi va uning oqibati	27
Sovet Possiyasining hududda intervensiya kuchlarining ta‘siri	28
Fuqarolar urushi davrida Qizil Armiyaning soni	29
1920-yida Moskvada bir ishchining kunlik oladigan mahsulotlar normasi	30
Prodravverstkani mahsulot solig‘I bilan almashtirish hususidagi masala va uning yechilish bosqichlari	31
Yangi iqtisodiy siyosat(NEP)ga o‘tishning sabablari	32
XX asrning 20-yillarda kommunistik harakat	33
XX asrning 20-yillarida sotsial-demokratik harakat	34
XX asrning 20-yillarida kapitalizmning rivojlanishi	35
1929-1933-yillarda kapitalizmning krizisi	36
20-30-yillarda Sovet Ittifoqida ishchilar sinfi	37
1927-yilda qishloq xo‘jaligining ahvoli	38
20-yillarda SSSRda yalpi don hosili	39
Birinchi 5 yillik yakunlari	40
Birinchi 5 yillikda hayot darajasining pasayishi	40
SSSRda ikkinchi 5 yillikning yakunlari (1933-1937yillar)	41
20-30-yillarda SSSRda maorif (ming.odam)	42
SSSRda qishloq xo‘jaligining kolektivlashtirilishi (%larda)	43
Iqtisodiyot ustidan ma‘muriy-buyruq tizimining g‘alabasi	44
Qishloq xo‘jaligini zo‘ravonlik bilan kollektivlashtirishning oqibatlari	45
“Burjua mutaxassislarga” qarshi siyosiy jarayonlar	46

30-yillarda majburiy mehnat	47
Partiya ma'muriy-boshqaruv tizimining markaziy bo'gini	48
30-yillarda davlatning xalqni aldash qamrovi	49
30-yillarda xalqni mafkuraviy aldash yo'nalishi	50
30-yillarda HKBDning lagerlaridagi mahbuslarning soni	51
SSSRning Rossiyaga qaraganda yirik sanoating yalpi mahsulotlarini o'sish sur'atlari (mlrd.rublda)	52
30-yillarda fashizm va militarizmning asosiy shakllanish bosqichlari	53
1941-yilning qishigacha SSSRning okkupatsiyadan ko'rgan talofati	54
Urushdan keying yillarda G'arb davlatlarning rivojlanishida asosiy tendensiyalar	54
Zamonaviy kapitalizm qiyofasining o'zgarishi	55
G'arbda ilmiy-texnika inqilobi va uning o'ziga xosliklari	56
YIH davlatlarining iqtisodiy rivojlanishidagi o'zgarishlarning mohiyati	57
Yaponiyaning iqtisodiy rivojlanishidagi o'zgarishlarning mohiyati	58
Sovet tizimining inqiroz bosqichlari (1985-1990-yillar)	59
Sotsialistik tizimning qulash sabablari	60
Sharqiy Yevropa davlatlaridasotsializmning ma'muriy-boshqaruvining barbod bo'lishi	61
80-yillar oxirida Sharqiy Yevropa davlatlarida inqiloblarningnatijalari	62
Xalqaro sotsial-demokratiya xozirgi zamonda	63
Sobiq SSSRning so'nggi yillari	64
XX asr oxiri XXI asr boshlarida dunyo	65
XX asr oxiri XXI asr boshlarida dunyo muammolari	66
XX asrning so'nggi o'n yilligida dunyo	66
XXI asrning boshlarida dunyo	67
XX asr oxiri – XXI asr boshlarida fan sohasidagi asosiy kashfiyotlar	70
O'zbekistonda mustaqillikdan keyin amalga oshirilgan milliy va jahon miqyosidagi muhim o'zgarishlar	71
O'zbekiston Respublikasi Diplomatik aloqalar o'rnatgan davlatlarning ro'yxati	80

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligini e’tirof etgan, lekin diplomatik aloqalar o‘rnatmagan davlatlarning ro‘yxati	86
O‘zbekiston Respublikasining takliflariga binoan quyidagi tadbirlar YUNESKO bilan hamkorlikda xalqaro miqyosda nishonlangan.....	87

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

I.M.SAIDOV, R.I.SAIDOVA

**ZAMONAVIY JAHON VA VATAN TARIXI –
SONLAR, FAKTLAR VA JADVALLARDA**

O‘QUV QO‘LLANMA

Samarqand – 2018

Hajmi 5,75 b.t. Adadi 150 nusxa. Buyurtma 10.

140150, “Nafis poligraf servis” MChJ kichik bosmaxonasida chop etildi,
Manzil: Samarqand sh., Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 67-A.